

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI**

Navro'zov Ikrom Nurullayevichning

**MAVZU: TARIXIY ONG VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH
DIALEKTIKASI**

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**ILMIY RAHBAR:
falsafa fanlari nomzodi,
dotsent R.R. Rajabov.**

NAVOIY-2013

MAVZU: TARIXIY ONG VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH DIALEKTIKASI

Kirish.

I Bob. Tarixiy ong genezisi

1.1. Tarixiy ong, tarixiy xotirani rivojlanish bosqichlari

1.2. Tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasining ayrim nazariy jihatlari.

II Bob. Tarixiy ong va milliy o'zlikni anglash mushtarakligi

2.1. Milliy o'zlikni anglash tushunchasi

2.2. Tarixiy ong va milliy o'zlikni anglash mushtarakligi.

2.3. Mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni anglashda yangi bosqich.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Mavzuni dolzarbligi: Mustaqillik yillarida haqqoniy, milliy o'zligimiz va ma'naviyatimizni tiklash, rivojlantirish asosiy muammoli vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgach, jamiyatimizning o'z tarixiy o'tmishini anglashga qiziqishi keskin kuchaydi. Bu hol buyuk tariximizning muayyan davrlarini haqqoniy va xolis baholash, O'zbekiston xalqlari rivojlanishining yangi, ajoyib, ulug'vor manzarasini yaratish imkonini berdi.

Tarix fanini o'rganish va o'qitishga katta e'tibor berilishi mustaqillik davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'ldi deganda adashmaymiz. Tarix fanini mazmun-mohiyati keyingi o'n besh-yigirma yil ichida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ko'lami ham kengayib bormoqda. Haqqoniy tarixni tiklash, tarixni ilmiyligi, xolisliyi, tarixiylikka amal qilish boshlandi. Qadimgi yunon faylasufi Fales shunday degan edi : "Eng qiyini - o'zingni anglay olishingdir. " O'zligini anglagan shaxs hech qachon to'g'ri yo'ldan adashmaydi. Aksincha o'zi uchun ezgu ishlarga xizmat qiladi.

Insoniyat sivilizatsiyasi madaniyati yutuqlarini o'zlashtirib o'tmish tariximizni haqiqat ko'zi bilan xolisona qarab, milliy o'zlikni qayta tiklash asosida yosh avlodni, uning ongida tarixiy ong va tarixiy xotirani singdirish asosida barkamol, erksevar, insoniylik ruhida tarbiyalash mumkin. Bu asosan ta'lim tizimini barcha bo'g'inlari, adabiyot-san'at orqali amalga oshiriladi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlagan edilar: "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi¹".

Bugungi zamon ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tarixiy xotirani singdirish uchun eng avvalo tarixiy ong shaxs ongiga singdirish muhim o'rin

¹ I.A.Karimov . "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent. "O'zbekiston"1997-yil. 140-bet

tutadi. Tarixiy ong va tarixiy xotira hamda ularni orqali yoshlar ongida o'zlikni, milliy o'zlikni anglashni shakllantirish hozirgi kunda ancha dolzarb muammo bo'lib, u quyidagi jihatlar bilan izohlanadi. Globallashuv, integratsiya jarayonlari dunyoning barcha mamlakatlari, millat, xalqlariga juladan bizni mamlakatimizga ham ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz, millatimizni barqaror taraqqiyoti uni minglab yillar davomida to'plangan milliy qadriyatlari, urf-odatlarini asrab, saqlash va zamonga moslashtirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Milliy qadriyatlarni asrash, uni ruhida yashash har bir millatni o'ziga bog'liq. Buning uchun millat o'zligini anglagan bo'lishi lozim.

Jahonda va mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, bugungi kunning siyosiy voqeligi hamda kundalik turmush ehtiyojlari jamoatchilikning tarixga bo'lgan qiziqishini pasaytirmadi, aksincha, o'tmishni yanada keskinroq idrok etishga olib keldi. Bu qonuniy jarayondir, chunki yangi o'zgarishlar davri o'tmishni yuzaki o'rganish bilan cheklana olmaydi, U barcha davrlar hamda jarayonlarni har tomonlama chuqur anglashni talab qiladi. Chunki «tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. o'tganlarini xotiralamaydigan xalqning ertasi yorug' bo'lmaydi. Agar millat o'zining kelajagini porloq ko'rmoqchi bo'lsa, uning xotirasi uyg'oq bo'lmog'i shart. Boisi har qanday xalq va millat kechagi hayotidan, o'zi bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli kunlardan, tarix sinovlaridan zarur xulosa va saboqlar chiqarmog'i zarur¹».

Shuning uchun «mustaqillik yillarida o'zligimizni anglash, tarixiy — milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida nimaiki ish qilayotgan bo'lsak, ularning barchasini yagona maqsad — ko'p millatli xalqimizni birlashtirish uchun qilmoqdamiz». Shu bois «davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga» aylandi;

Hozirgi kunda tarix fani tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mavjud umrini o'tab bo'lgan, tarixiy konsepsiya qarashlaridan voz kechilmoqda, yangi qarashlar, konsepsiyalar kirib kelmoqda. Jamiyatni barqaror rivojlanishi uchun

¹ Karimov I.A. Xotira boqiydir, qadr — muqaddas. «O'zbekiston ovozi». —2007. —№ 56.

tarix bilan shug'ullanish lozim. Qaysidir darajada u bizni so'ngi barqarorlikni yaratgan hozirgi yashashimizga yordam beradi. Kundalik hayot iker-chikirlaridan xoli bo'lib, o'tmish tarixiy jarayonlarni, tadqiq, tahlil qilish orqali bugun va kelajak manzarasini yaxshiroq tushunish mumkin;

Vatanimizda buyuk shaxslar "Amir Temur, M. Behbudiy, Munavvar Qori, A. Cho'lpon, U. Nosir, A. Fitrat, A. Avloniy, A. Qodiriy, A. Navoiy, Z.M. Bobur, M. Ulug'bek" hayoti va ijodiga oid bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini sifat darajasini ko'tarish lozim.

Kamol topayotgan yoshlarni ma'naviyatchi qilib tarbiyalash uchun tariximizga oid bo'lgan kino, san'at asarlari, muzeylar, bog'lar, shaharlar yaratishimiz zarur.

Bu ishlarni qilishdan ko'zlangan maqsad ajdodlarimizni tarix uchun boy merosini yoshlar ongida singdirish. Ajdodlarimiz o'z zamonasida bosh ko'tarib xalqimizni yuksaltirishga milliy o'zlikni anglashni naqadar muhimligini yaxshi tushungan holda xalqimizni uyg'onishga chorlaganlar. Jadidchilikni taniqli arboblardan biri M. Behbudiy shunday degan edi: "Qabilasining ismini va yeti otasini otini bilmay turg'onlarni "Qul manqurtlar" deganlar". Prezidentimizni bu fikrlari boy ma'noga ega.

Xususan o'zbek xalqi ma'naviyati va ma'rifati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u millatimiz ongi va ruhiyatining muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yo'li bilan millatni ham yo'q qilish mumkin, deb hisoblaganlar va shu siyosatni izchillik bilan amalga oshirishga intilganlar. Ularning bu harakatlari bejiz emas edi. Chunki, Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Tarixdan ma'lumki, biz xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uning o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi"¹.

Milliy o'zlikni anglash real hayotda millat sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori paymol etilganda yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir

¹ I. A. Karimov. "Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". Toshkent. "O'zbekiston". 2000.

tomondan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qafiy nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash millatning til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, ma'naviyatdagi oz'aro xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy oz'likni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi-milliy manfaatlar, ehtiyojlar umumiyligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish, uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Tarix fanini nazariy amaliy masalalariga milliy o'zlikni anglashga katta e'tibor berilishi, mustaqillik davrining o'ziga xos xususiyati bo'ldi. Tarix fani mazmun-mohiyati va o'qitishga keyingi 15 yilda amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'lamini ham buni isbotlaydi. O'tmish tarixni tiklash, tarixga ilmiylik, xolislik, tarixiylik nuqtai-nazaridan yondashish asosiy vazifa deb qaraladi. Prezidentimiz Islom Karimovning maruza va nutqlarida, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"¹ risolasida tarixchilarimiz oldida turgan asosiy metodologik, metodik muammolar, amaliy dolzarb vazifalarni ko'rsatib berildi. Jumladan Pespublikamiz olimlaridan Abdullajonova D, Tullenov J, Jabborov I, R. Abdullayevlarning bevosita tarixiy xotira va tarixiy ong muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari e'lon qilindi. Bu tadqiqotlarda tarixiy ong atroficha falsafiy – madaniyat nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Ularga ta'rif berilib tarixiy ongni mohiyat mazmuni ochib berilib ijtimoiy voqeylik bilan yaqin aloqada bo'lgan ijtimoiy ong shakli sifatida ko'rsatilgan. Ayniqsa tarixiy ongning va tarixiy xotiraning hozirgi kunda yoshlarda ilmiy tarixiy dunyoqarashni shakllantirishda tutgan o'rnini to'g'risida R. Raxmonov, F. Fayziyevlarning "Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira" risolasi diqqatga sazovordir. Risolada tarixiy ohg va tarixiy xotira tushunchalarini falsafiy tahlil qilish bilan bir qatorda uni kelib chiqishi, shakllanishiga ham bir darajada

¹ Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". "Sharq" T.:1998-yil.

e'tibor beriladi. Bundan tashqari qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tarixiy ong u yoki va unga aloqador boshqa madaniy-falsafiy kategoriyalarga oid ishlari mavjud. Jumladan, Samiboyev X, Shirinboyev SH, Qurbonov T. X, Kamenskaya R. A, Kelle V.J, Orudjev Z.M, Kuznetsova T.V, Rajabek B. Yaning ishlari.¹ Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"² asari esa ma'naviyatimiz qomusi bo'lib, unda tarix xalqimizning ajralmas qadriyatlari, afsonalari bilan uyg'unlashib ketgan e'tiqodini mustahkamlab, ma'naviyatini 20 yilga ulg'aytiradigan ulkan kuch ekanligini ilmiy tilda asoslab tahlil etildi. Tarixiy ong va tarixiy xotira muammolari g'arb tarixchilarining doimiy diqqat e'tiborida bo'lgan. Milliy tariximizda va XIX asr oxiridan jadid namoyondalarining asarlarida o'z aksini topdi. Tarixiy ong genezisi bo'yicha kulturolog-tarixchi faylasuf olimlar N. Kon, Rakitov.

Tadqiqotning maqsadi: Hozirgi kunda millatimiz, mamlakatimiz barqaror taraqqiyoti uchun milliy jipslik muhim o'rin egallashini amaliy jihatdan dolzarbligini hisobga olib, milliy o'zlikni anglashni tashkil etgan uni tarkibiy unsurlaridan biri tarixiy ong, tarixiy xotirani tushunchalari ularni milliy o'zlikni anglashdagi o'rnini o'rganish "Milliy o'zlikni anglashda tarixiy ongning o'rne va ahamiyati" mavzusidagi dissertatsiyasida tarix ta'limi quyidagi muammolarni tadqiqot yo'nalishi qilib oldik.

1. Tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasi va uni genezisi.
2. Tarixiy ongni rivojlanishini hozirgi bosqichi
3. Milliy o'zlikni anglash nima?
4. Tarixiy ong va o'z-o'zini anglash dialektik birligi.

¹ Абдуллажонов Д. Тарихий онг ва тарихий хотира. // Фалсафа ва ҳуқуқ.. - Тошкент, 2004. - № 2, 83-бет.

Туленов Ж., Жабборов И. Тарихий онгни ривожлантириш - давр талаби. - Т.: Мехнат, 2000, 7-бет.

Абдуллаев Р. Тарихий онг ва Ўзбекистоннинг замонавий тарих фани. // Тарих ва ўзликни англаш II: Ўзбекистон ва Германия XX асрда. - Тошкент, 2007, 6-12-бетлар.

Абдуллажонов Д. Тарихий онг ва тарихий хотира. // Фалсафа ва ҳуқуқ.. - Тошкент, 2004. - № 2, 82-бет.

Қурбонов Т.Х., Ёшларда миллий гуруҳнинг шаклланишида маданий мероснинг роли: фалс.фан.номз. дис. автореф -Т.:ЎЗМУ, 2005, 12-бет.

Каменская Р.А. Историческое сознание: Автореф. дис. канд. филос. наук. - Волгоград: ВГПУ, 1999. - С. 4.

Самибоев Х., Ширинбоев Ш. Махалла — тарихий хотиранитар-биялаш маскани. // Мулоқот.- Тошкент, 2003. — № 3, 10-бет.

Келле В.Ж. Интеллектуальная и духовная составляющие культуры. // Вопросы философии. — Москва, 2005. - № 10. - С. 38-54.

² Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". "Ma'naviyat" T.:2008-yil.

5. Mustaqillik sharoitida tarixiy ong va milliy o'z-o'zini anglashni o'stirish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqotning predmeti: tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalarini, milliy o'zlikni anglash va unda tarixiy ong, tarixiy xotirani o'rni.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot davomida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni vazifa qilib oldik.

- tarixiy ong, tarixiy falsafiy kategoriya sifatida;
- milliy o'zlikni anglashni dolzarib muammolari;
- milliy g'ururni talabalar ongida shakllantirish;
- I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida milliy o'zlikni anglash tushunchasini tarixiy naqtai-nazardan ko'rsatib berish;

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi "Talim to'g'risida"gi Qonuni¹, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"² (1997 yil), Umumiy o'rta talimning davlat talim standartlari³ (1999), Prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasi, milliy o'zlikni anglash mavzusiga oid ilmiy ishlar magistrlik dissertatsiyasining metodologik asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari: muammoni tadqiq etishda tarixiy-dunyoqarash metodlardan statistik, mantiqiy umumli foydalanishga harakat qildik.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

- Tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasi va uni genezisi.
- Ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy ong rivojlanishi.
- Tarixiy ongni rivojlanishini hozirgi bosqichi
- Milliy o'zlikni anglash nima?
- Tarixiy ong va o'z-o'zini anglash dialektik birligi.
- Mustaqillik sharoitida tarixiy ong va milliy o'z-o'zini anglashni sifati va uyg'unlashtirish

Dissertatsiyaning tarkibi. Kirish, ikki bob besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida milliy o'zlikni

¹ Ta'lim to'g'risidagi qonun "Ma'rifat" gazetasi, 1-oktabr. 1997.

² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Xalq ta'limi jurnali"1998-yil.

³ Davlat ta'lim standartlari "Ma'rifat" gazitasi, 18 avgust №-67 1999-y

anglashda dolzarb mummosining yechimini izlashda qanday metodlardan foydalanilganligi, oldimizda turgan maqsadlardan kelib chiqib, vazifalarimiz ko'rsatib o'tildi.

Birinchi bob, ikki reja asosida yoritiladi ya'ni, tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalari, ularni yechimlarining ahamiyatli tomonlari ko'rib chiqiladi. Tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasining mohiyat-mazmuni.

Dissertatsiya bundan tashqari xulosa va ilmiy ishni yoritishda foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat.

I. Tarixiy ong genezisi

1.1 Tarixiy ong, tarixiy xotirani rivojlanish bosqichlari

Hozirgacha tarixiy ong gehezisi bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalgam oshirilgan. Tarixiy ong tarixiy xotira tushunchalari falsafiy-madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tafsiflangan. Biz bu o'rinda ularni tarix falsafasi nuqtai-nazaridan qarab ularni shakllanishi rivojlanishi bosqichlariga tarixiy nuqtai nazardan e'tiborni jalb qilamiz.

Tarixiy ong va tarixiy xotira bu ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida shaxs, jamiyat, millat, xalq dunyoqarashining bir unsuridir. Dunyoqarash insonning olam haqidagi yaxlit tushunchalari, tasavvurlaridir. Aniqroq aytganda, dunyoqarash inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan turli mazmun va darajadagi umumlashmalar tizimidir. Dunyoqarash inson o'zini va dunyoni yaxlit anglashining o'ziga xos shaklidir. Demak, dunyoqarash oddiy tushuncha emas, balki inson faoliyatiga, uning tabiat, jamiyat hodisalarini tushunishiga, ularga munosabatini belgilashga asos bo'ladigan ma'naviy omildir. Tarixiy ong ham inson dunyoqarashini bir unsuridir.

Ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tarixiy ong va tarixiy xotira murakkab hamda serqirra hodisadir. Tarixiy ongga, shuningdek uning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy xotiraga, ularning o'zaro hamda ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan aloqasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan R. Raxmonov, F. Fayziyevlarning tarixiy ongni shunday tushuntiradilar: "Tarixiy ong — o'tmishni uning umuman jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruxlarga, shuningdek aloxida individlarga xos bulgan butun rang-barangligini hisobga olgan holda baxolash xamdir. Bizningcha, tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruxdari va individlarning o'z utmishi xamda butun insoniyat utmishi xakidagi tasavvurlari yigindisidir. Tarixiy ongda o'tmish, bugun va kelajak uygunlikda in'ikos etadi".¹ Albatta bu tushuncha aniq va mazmunan keng berilgan, biz faqat bu ikki so'zga kengroq e'tibor beramiz.

¹ R. Raxmonov, F. Fayziyev. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T.: "O'zbekiston" 2008. 18-bet

Tarixiy ong va tarixiy xotira yaxlit birlikda bo'lsada, lekin tarixiy ong birlamchi bo'ladi. Tarixiy ong shakllangan, o'zini mukammal darajasiga yetgan bo'lsa, tarixiy xotira shaxs, xalq, millatda yuqori darajada ko'rinadi. Tarixiy ong, bu— har qanday bilimda bo'ladigan, hamma narsa, hatto ma'naviy borliq ham bo'lib o'tganligini anglashdir.

Tadqiqotchi D. Abdullajonova tarixiy ongga shunday ta'rif beradi: «Tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo'lib, jamiyat tomonidan o'zining kelib chiqishi va zamondagi o'rni, o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi o'rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy voqelikning ob'ektiv idrok etilishidir»¹. Demak, tarixiy ong nafaqat xalq, millat yoki shaxsga, balki millatga ham tegishli deyish mumkin.

O'zbek faylasuf olimi J. Tulenov tarixiy ongni quyidagicha tushuntiradi: «Tarixiy ong ilgari sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan turli-tuman manbalar, ashyolar avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, tariximiz, madaniyatimizning uzluksizligini ta'minlaydi»². Olimning yuqoridagi ta'rifiga faqat ikki so'zga e'tibor beramiz, ijtimoiy guruh va sinflar. Ijtimoiy guruh va sinfda tarixiy ong bo'lishi mumkinmi, agar bo'lgan taqdirda u qanday va nimada namoyon bo'ladi? Bizning fikrimizcha aytilgan kategoriyalar jamiyat va millat, shaxs dunyoqarashida mavjud bo'ladi, ijtimoiy gurux va sinflar tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalarini o'z manfaatlari nuqtai-nazaridan biladilar hamda undan foydalanadilar.

J.Tulenov, I. Jabborovlarning yana bir shu haqdagi tarifiga e'tibor beramiz: «Ilm-fanda tarixiy ong deganda odatda ijtimoiy guruhlar, sinflar, xalqlar, millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblarning haqida, o'z tarixining boshqa kishilik jamoalari va umuman bashariyat hamjamiyati tarixi bilan nisbati haqidagi qarashlar, an'analar, udumlar, odatlar, konsepsiyalar mujassami tushuniladi»³. Bu tarif keng qamrovli hamda ko'pchilikni qondiradigan darajada bayon qilingan.

¹ Abdullajonova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. // Falsafa va huquq - Toshkent, 2004. - № 2, 83-bet.

² Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish -davr talabi. -T.: Mehnat, 2000, 7-bet.

³ Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish -davr talabi. -T.: Mehnat, 2000, 7-bet.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tarixiy xotirani mazmunan tahlil qilganda tarixiy xotirada san'at, urf-odat, marosimlar bilan bog'liq axborotlar saralangan tarzda jamlanadi va saqlanadi deb hisoblaydilar. Bu tushunchada san'at va urf-odat, marosimlar bilan bo'lgan axborotlar to'g'risida aytiladi, lekin tarixiy xotirada ular qanday nufuzga ega va ularni saqlanishi qay tarzda bo'lishini tushunishimiz kerak. Tarixiy ong-tushunchasi tarix falsafasining bosh mavzusidir. Shu sababli biz bu yo'nalishda uni tahlil qilmaymiz, faqat tarixiy nuqtai nazardan uni rivojlanish bosqichlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Chunki, Prezidentimiz shunday ta'kidlagan edilar: "Mustakillikka erishganimizdan keyin xalkimizning uz yurti, tili, madaniyati, kadriyatlari tarixini bilish-ga, uzligini anglashga kizikishi ortib bormokda. Bu — tabiiy xrl. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, uzi turilib voyaga yetgan kishlok, shaxar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi."¹

Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Uning shakllanishi insoniyat-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi. Ijtimoiy ong siyosiy, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, san'at falsafa shakllarida mavjud bo'ladi. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Ana shu falsafiy dunyoqarashning bir unsuri jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining o'tmish holatini ko'z oldimizda gavdalantiradigan tarix falsafasi yoki tarixiy ongdir.

Tarixiy ong genezisiga bag'ishlangan ishlarda, ko'pgina tadqiqotchilar yevropa an'analari bilan chegaralanib qoladilar xolos. Yevrosentrizm g'oyasi muxlislari tarixiy ongning shakllanishini Yunonistonda er. avv. V asrda Gerodotning mashhur "Tarixida" ro'yobga chiqdi deb hisoblaydilar. Empirik nuqtai nazaridan qaraganda Gerodotning asari dastlabki haqiqiy tarixiy asar deb e'tirof etiladi. vaholanki tarixiy ongning dastlabki kurtaklari insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshigi- Sharqqa paydo bo'lganligi ma'lum, ammo

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 132-bet.

nima uchun tarixiy ongni yaqqol ko'rinishi Gerodot tarixi bilan bog'lanadi va u tarix otasi deb ulug'lanadi.

Bizning fikrimizcha, tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllanishi Qadimgi Sharqda er. avv. IV ming yillikda boshlandi va er. avv. II ming yillikda mukammal (nisbatan) holatga keldi. Biz bu fikrni quyidagicha asoslashga harakat qilamiz:

- Qadimgi Sharqda er. avv. IV ming yillikda davlat va jamiyat shakllandi. Shunga mos ravishda ilmiy bilimlar, mafkura, madaniyat, ma'naviyat yuzaga keldi.

- Sharq jamiyati, madaniy-ma'naviy va ilmiy sohalarda yuksak yutuqlarga erishdi. Ilmiy mufologik diniy dunyoqarashini shakllantirdi. Bu navbatida ijtimoiy ongni nisbatan shakllantirganidan jumladan tarixiy ongni shakllanganidan dalolat beradi.

- Shuningdek, Qadimgi Misrda qadimgi podsholik davridan boshlab (er. avv. III ming yillik shunday yozma manbalar bizgacha yetib keldiki, ularni har birini kichik bir tugallangan tarixiy asar deb qarash mumkin. Misol uchun, "Mechanning tarjimai holi", "Xufxorning hayot tasviri", "Piopenaxt yozuvi", "Zodagon, uning hayot tasviri", "Suit monarxlari yozuvlari", "Tutmos annallari"). Bundan tashqari Mesopotamiya, O'rta Osiyo, Xitoy, Eron, Hindistonning qadimgi manbalari fikrimizning yaqqol dalilidir.¹

Insoniyat jamiyatdagi turli xil bo'yoqlarda gavdalangan tarixiy harakatlar, voqealar, alohida inson taqdiri, xalqlar elatlar to'qnashuvlari tarix haqida haqiqiy empirik bilimlarning to'planishiga olib kela boshladi.

Yunon jamiyatida Gesiodning xudolarning shajarasini tizimga solishi, voqealarni uzviy bog'lab yunon tarixini mifologiyadan ajratib olishga yordam berdi. Yunon jamiyatidagi chuqur tarixiy voqealar, ijtimoiy siyosiy hodisalar, yunon fors urushlari va ularning oqibatlari, varvarlar dunyosi bilan bo'lgan mushkul munosabatlar va eng asosiysi ilmiy va falsafly dunyoqarashning tez rivojlanishi Gerodotning "Tarix" kabi asarlarini maydonga keltirdi.

¹ Хрестоматия по истории древнего Востока. М. Восточная лит. 1963. 12-13 стр

Tarixiy ong va shunga muvofiq bo'lgan ong shakllarining paydo bo'lishi omillaridan biri ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar determinatsiyasi, uzviy aloqadorlik, izchillik va alohida kishilarning vaqt mobaynidagi harakatlari edi. Yunonistonda urug'-aymoqchilik munosabatlarining buzilishi, yunon polislarining vujudga kelishi iqtisodning gurkirab o'sishi, kommunikatsiyalar, moddiy va ma'naviy rrtadaniyatning yuqori pog'onalarga ko'tarilishi tarix va vaqt muammosi haqidagi tushunchalar yunon fani va falsafasiga obyektik asos bo'ldi. " Engels yunon madaniyati , falsafasi va fani haqida takidlar ekan, bu kichkina xalqning universal iqtidorligini ko'rsatib o'tgan edi".

Gerodot asarining tarixiy manbasi uning voqealari sharqda yuz bergan edi, lekin Gerodotgacha xilma-xil boy tarixiy manbalar bir kitobda jamlanmagan edi. Qadimgi Misrda Nil daryosining toshqini Sirius yulduzining ko'rinishi bilan bog'liqligini o'rganishlari, vafot etgan faraonning mo'miyolashtirilishi, Bobildagi minajjimlarning kuni-tun osmon jismlari harakatini kuzatishlari, Ikki daryo oralig'ida turli ijtimoiy siyosiy yozuvlar yozilgan sopol taxtachalar qadimgi sharq kishisining ham tarixiy ongi, qiziqishidan dalolat beradi.

Tarixiy ong va tarixiy qiziqish haqida muhokama qilar ekanmiz, savol tug'iladi. Tarixiy ong qayerda, qachon va nima uchun paydo bo'lgan.

Sharqdan keyin Yunonistonda insonda tarixiy ongning shakllanishi Gerodotning mashhur "Tarixida" ro'yobga chiqdi. Empirik nuqtai nazaridan qaraganda Gerodotning asari dastlabki haqiqiy tarixiy asari. Insoniyat jamiyatdagi turli xil bo'yoqlarda gavdalangan tarixiy harakatlar, voqealar, alohida inson taqdiri, xalqlar elatlar to'qnashuvlari tarix haqida haqiqiy empirik bilimlarning to'planishiga olib kela boshladi.

Yunon jamiyatida Gesiodning xudolarning shajarasini tizimga solishi, voqealarni uzviy bog'lab yunon tarixini mifologiyada ajratib olishga yordam berdi. Yunon jamiyatidagi chuqur tarixiy voqealar, ijtimoiy siyosiy hodisalar, yunon fors urushlari va ularning oqibatlari, varvarlar dunyosi bilan bo'lgan mushkul munosabatlar va eng asosiysi ilmiy va falsafiy dunyoqarashning tez rivojlanishi Gerodotning "Tarix" kabi asarlarini maydonga keltirdi.

Tarixiy ong va shunga muvofiq bo'lgan ong shakllarining paydo bo'lishi omillaridan biri ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar determinatsiyasi, uzviy aloqadorlik, izchillik va alohida kishilarning vaqt mobaynidagi harakatlari edi. Yunonistonda urug'-jamochilik munosabatlarining buzilishi, yunon polislarining vujudga kelishi iqtisodning gurkirab o'sishi, kommunikatsiyalar, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuqori pog'onalarga ko'tarilishi tarix va vaqt muammosi haqidagi tushunchalar yunon fani va falsafasiga obyektiv asos bo'ldi." Engels yunon madaniyati, falsafasi va fani haqida takidlar ekan, bu kichkina xalqning universal iqtidorligini ko'rsatib o'tgan edi"¹. O'xshash jarayonlar antik bilimlar darajasigacha chiqqan bo'lsa ham Sharqda ham o'z o'rnini topgan edi.

Qadimgi Misrda Nil daryosining toshqini Sirius yulduzining ko'rinishi bilan bog'liqligini o'rganishlari, vafot etgan firavnni mo'riyolastirilishi, Bobildagi minajjimlarning kuni-tun osmon jismlari harakatini kuzatishlari, Ikki daryo oralig'ida turli ijtimoiy siyosiy yozuvlar yozilgan sopol taxtachalar qadimgi Sharq kishisining ham tarixiy ongi, qiziqishidan dalolat beradi.

Inson tarixini o'rganish qadim davrlardan boshlangan. Tarixiy taraqqiyot, uning ziddiyatlari ala-quroq ko'rinishi insoniyat tafakkurini doimo band qilib kelgan. Ayniqsa, XVIII asrdan boshlab tarixiy taraqqiyot, tarixiy ong mutafakkirlar uchun asosiy tadqiqot mavzusiga xalqlar hayotidagi burilish lahzalari, urushlar va inqiloblarga aylandi. Iqtisodiy ko'tarilish va o'sishdan depressiya va tushkunlikka tushish, ishlab chiqarishdagi tub o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy diniy harakatlar va boshqalar har doim tarixga alohida bir ko'tarinki qiziqish bilan qarashga undagan. Bunda bazan tarix najot yo'li, to'planib qolgan ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy masalalar yechimi kaliti deb qaralgan. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotini atroflicha ushinish va tahlil qilishga harakat qilib kelindi.

Ammo tarixiy taraqqiyot, tarixni tushunishda ko'pgina mutafakkirlar bazida qarama-qarshi fikrlarga kelishdi. Tarixni mushohada qilish, uning falsafiy tomonlarini tushunish bosh mavzuga aylana boshladi.

¹ Marks K, Engels F. COH. T. 20 crp-369.

Biz tarixiy ongni shakillanishi rivojlanishini tarixan tahlil qilgan holda insoniyat tarixiy ongi genezisini quyidagi bosqichlarga bo'lamiz:

birinchi bosqich: insoniyatning bolalik davri – insoniyatning ibtidoiy jamoa davri (bu davrda mifologiyada barcha xalqlar qadimgi mifologiyasida tarixiy ong, tarixiy xotira unsurlari mavjud)

ikkinchi bosqich: davlat va jamiyatning qadimgi davri er.avv. IV ming yillikning oxiri – eramizning V asrigacha. Bu davrda tarixiy ongning haqiqiy ko'rinishi bo'lgan tarixiy asarlar yozila boshlandi (Gerodot, Fukidit, Ksenofon, Manefon, Beroyes, Tit Liviy, Gay Sallyustiy Kris, Gay Svetoniy, Tatsit, Plutarx; o'lkamizda er.avv. I ming yillikdagi Avesto bunda alohida o'rin tutadi. Bu noyob yodgorlikda o'lkamiz o'tmish tarixi to'g'risida boy ma'lumotlar mavjud)

uchinchi bosqich: o'rta asrlar- V asrdan XV asrgacha. Bu xronologiya Yevropa tarixshunosligi nuqtai nazaridan olindi. (Bu davrning o'ziga xos jihatlari shundaki sharq va g'arbda ko'plab tarixiy asarlar yaratildi. Bu asarlarda endilikda ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy voqea va xodisalar yaxlit bir davrni, davrlarni qamrab oldi, tarixiy asar yozishni ilmiy uslublarini shakillantirish tomon yo'l tutildi)

to'rtinchi bosqich: yangi davr XVI- XVIII asrlar. (bu davrda tarix fani bo'yicha asarlar yaratish tizimli tusga kirdi, ayniqsa XVIII asr ma'rifatparvarlik davrida tarixiy ongga alohida e'tibor berildi. Tarix fanini metodi va metodologiyasi yaratila boshlandi, shuningdek diniy mafkuradan tarixni xalos bo'lishi yuz berdi. Ilk bor Polibiydan keyin jahon tarixini yaratishga urinildi (Volter) tarixiy ongni mohiyat mazmunini tushunishga harakat boshlandi, tarix falsafasi atamasi paydo bo'ldi)

beshinchi bosqosh: XIX asr, bu davr tarixiy ongni rivojlanishida alohida o'rin tutadi, qaysiki bu davrda tarix metodologiyasi, tarix fani to'g'risida qarashlar, konsepsiyalar, ta'limotlar paydo bo'ldi.

Oltinchi bosqich: XX asr. Bu bosqichda tarix fani metodi, metodologiyasi bo'yicha turli konsepsiyalar, ta'limotlar paydo bo'ldi. Ularda bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ziddiyatli oqimlar xarakterli hol bo'lib qoldi (A. Toynbi, Shpengler, K. Yaspers, K. Popper.) Ular tarixiy ong umuman tarix fani, insoniyat

tarixini mohiyat mazmunini tarix falsafasi nuqtai-nazaridan turlicha tahlil qildilar va hokazo).

Milliy tarixshunosligimizda tarixiy ong genezisini Yevropa tarixshunosligidan ajralib turadigan jihatlari mavjud. Bu o'rta asrlardan boshlab ko'rinadi. O'rta asrlarda o'lkamizda tarix asarlari arab-fors, turkiy tillarda yozildi. Bu asarlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ma'naviy hayotini bir qadar aks ettirdi. Shu bilan birga xalq og'zaki ijodida boy mazmunga ega dostonlarning yaratilishi barqaror davom etdi. Biz o'sha davr tarixiy asarlarlarida hamda xalq dostonlarida tarixiy ong unsurlarini izchillikda ko'ramiz.

Yuqorida bayon etilganlardan tashqari, tarixiy ong tizimida xotira «nafaqat tarixiy xotirani saqlaydi, balki inson ongida shakllangan bilim asosida o'tmishda ro'y bergan voqealarni tahlil etadi, xulosa chiqaradi, xarakterli tomonlarini qabul qiladi, turmushga joriy etadi va jamiyatning hozirgi sharoiti bilan solishtirib, qadrini belgilaydi»¹.

Bizningcha, ong va tafakkur — jarayon, xotira esa qobiliyatdir. Binobarin, ijtimoiy ongning barcha shakllari o'zaro uzviy bog'langan, bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, bir-birini o'zaro boyitadi.

Har qanday ijtimoiy mushtaraklik o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi eng muhim voqealar, o'tmishdagi buyuk (ba'zan unchalik buyuk bo'lmagan) arboblarning to'g'risida, o'z tarixining insoniyat tarixidagi o'rni haqida, o'z tarixining boshqa xalqlar tarixi bilan nisbati to'g'risida muayyan tasavvurlar tizimiga ega. Bu tasavvurlar, birinchi navbatda, turli tarixiy rivoyatlar, hikoyatlar, afsonalar, ertaklar, asotirlar tufayli mavjud bo'lib, ular jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi hamda uning o'zini ifodalashi va o'zini qaror toptirishining muhim usullaridan biri hisoblanadi.

Demak, tarixiy ong bilimlar, tasavvurlar, qarashlar, an'analar, marosimlar, urf-odatlar, g'oyalar, konsepsiyalar, fikrlarning shunday yig'indisini, majmuini tashkil etadiki, ular vositasida individlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda,

¹ Samiboyev X., Shirinboyev Sh. Mahalla -tarixiy xotirani tarbiyalash maskani. //Muloqot.-Toshkent, 2003.-№ 3, 10-bet.


millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi eng muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblarning to'g'risida, o'z tarixining kishilarning boshqa mushtarakligi, shuningdek inson sotsiumi va o'zining undagi o'rni bilan nisbati to'g'risida muayyan tasavvur paydo bo'ladi.

Tarixiy ong — o'tmishni uning umuman jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruhlariga, shuningdek alohida individlarga xos bo'lgan butun har-xillikni hisobga olgan holda baholash hamdir. Bizningcha, tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o'z o'tmishi hamda butun insoniyat o'tmishi haqidagi tasavvurlari yig'indisidir. Tarixiy ongda o'tmish, bugun va kelajak uyg'unlikda in'ikos etadi.

Shunday qilib, tarixiy ong va tarixiy xotira inson tomonidan oila shajarasidagi, o'z xalqi tarixidagi o'zining «Men»ini (shaxs) anglashining va umumiy «Biz»ni (millat-xalq) milliy va madaniy birlik ma'nosida umuminsoniy madaniyat nuqtai nazaridan tushunishining asoslaridan birini tashkil qiladi.

Ijtimoiy o'zlikni anglash ijtimoiy borliq tarixiy voqeligi bilan hamohang bo'ladi. Ijtimoiy voqelikdagi barcha bu erda ahamiyatli deb ataladigan tarixiy voqelik-hodisalar dastlab ijtimoiy ongda xalq og'zaki ijodiyotidagi o'z aksini topadigan bo'lsa yozuv paydo bo'lganidan so'ng alohida matnlarda o'z ifodasini topadi. Bu boshqa huquqiy-rasmiy hujjatlar ko'rinishida bo'lib keyinchalik bu hujjatlar tarixiy asarlar uchun manba vazifasini o'tadi.

Tarixiy asarni asosiy funksiyalaridan biri o'tmish tarixiy voqea-hodisa to'g'risida keyingi avlodga ma'lumot berishdir. Ana shu ma'lumotlarni o'qib tahlil qilish orqali individ xotirasida tarixiy xotira shakllanadi. Quyidagi tasvirda bu jarayonni shunday tushuntiramiz:



Bu jarayon har qaysi xalq-millatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida yuz beradi. Tarixiy ong, tarixiy ong asosida millatni o'zligini anglashi jadal yoki sekin-asta borishi mumkin.

Bunday hollarda millatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini qay darajada borishi ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy voqelik, millatni siyosiy nufuzi bunga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omildir.

Agarda millat o'z suverenitetiga ega bo'lsa uni milliy o'zligini yuqori darajaligidan dalolat beradi. Xalq-millat uzoq vaqt boshqalarga qaram bo'lsa uni tarixiy ong, tarixiy xotira barqaror rivojlanishiga to'siqlar paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida induvid, millatni o'zligini anglash jarayonini sekinlashtiradi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqaramiz.

- Ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tarixiy ong va tarixiy xotira murakkab hamda serqirra hodisadir.
- Tarixiy ongga, shuningdek uning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy xotiraga, ularning o'zaro hamda ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan aloqasi mavjud.

- “Tarixiy ong — oʻtmishni uning umuman jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruxlarga, shuningdek aloxida individlarga xos bulgan butun rang-barangligini hisobga olgan holda baxolash xamdir. Bizningcha, tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruxdari va individlarning oʻz utmishi xamda butun insoniyat utmishi xakidagi tasavvurlari yigindisidir. Tarixiy ongda oʻtmish, bugun va kelajak uygunlikda inʼikos etadi”.¹
- Tarixiy ong va tarixiy xotira yaxlit birlikda boʻlsada, lekin tarixiy ong birlamchi boʻladi. Tarixiy ong shakllangan, oʻzini mukammal darajasiga yetgan boʻlsa, tarixiy xotira shaxs, xalq, millatda yuqori darajada koʻrinadi. Tarixiy ong, bu—har qanday bilimda boʻladigan, hamma narsa, hatto maʼnaviy borliq ham boʻlib oʻtganligini anglashdir.
- Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yoʻlni bosib oʻtgan oʻz genezisiga ega. Uning shakllanishi insoniyat-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi. Ijtimoiy ong siyosiy, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, sanʼat falsafa shakllarida mavjud boʻladi.
- Tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.
- Demak, tarixiy ong oʻz taraqqiyotida oltita bosqichni bosib oʻtadi deb aytish mumkin, har bir bosqich oʻziga xos xususiyatlariga ega.
- Tarixiy ongning koʻrinishlari tarixiy bilimning mahsuli boʻlgan tarixiy asarlar, tarixiy qarashlar, tarixiy taʼlimot, konsepsiyalardir. Bularning orasida tarixiy ongning oily darajada koʻrinishlari tarixiy taʼlimot, turli tarixiy konsepsiyalardir.

¹ R. Raxmonov, F. Fayziyev. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T.: “Oʻzbekiston” 2008. 18-bet

1.2. Tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasining ayrim nazariy jihatlar

Yuqorida aytilganidek tarixiy ongni rivojlanishi bir necha bosqichlarni tashkil etadi. Tarix insoniyat egallagan bilimlardan biri sifatida ijtimoiy-hayotning turli jabhalarini qamrab oladi. Tarix insoniyat hayotining umumiy tafsilotidir. Agar tarixni keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, tarixiy tadqiqot va izlanishlar doirasi cheksizdir. Ammo tarixda alohida shaxs tarixiy vaziyatga ko'rinarli va sezilarli ta'sir eta olmaydi.

Diniy nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy taraqqiyot, aynan tarixdan tashqarida yotadigan, ammo unga hal qiladigan darajada ta'sir etkazadigan kuchlarga bog'liq. Ammo ko'pgina hollarda ijtimoiy o'zgarishlarning ibtido sababchisi sifatida, bazida buyuk shaxs, bazida amorf massa, "braun" harakati" ko'rinishlarida inson tarixiy harakatning dalili bo'lib keldi. "Tarix fan sifatida alohida shaxsning ham, umuman jamiyatning ham ma'naviy rivojlanishining ajralmas unsuri hisoblanadi."¹

Tarix nafaqat insoniyat faoliyati va merosi, balki bu insoniyatning muayyan vaqt oralig'idagi harakatlari va voqealar majmuidir. Tarix shu bilan birga vaqt uyg'unligidir, u faqat vaqtda mavjuddir.

Tarixiy ongda aks etgan tarixiy taraqqiyot, uning ziddiyatlari ala-quroq ko'rinishi insoniyat tafakkurini doimo band qilib kelgan.

Tarixiy ong tushunchasi tarix falsafasining bosh mavzusidir. Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Tarixiy ong "Afrodita dengiz ko'pigidan paydo bo'lganidek" birdaniga paydo bo'lgan emas. Uning shakllanishi insoniyat -iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi.

Ijtimoiy ong siyosiy, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, san'at falsafa shakllarida mavjud bo'ladi. Lekin tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.

¹ История Узбекистана. Под.ред. В.Л.Гентшке и др. –Т.: Университет, 2002, 4- стр.

Tarixiy ong falsafiy-tarixiy tushunchadir. Biz bu tushunchaning mohiyatini ochishdan oldin falsafiy dunyoqarash to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz kerak. "Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivqjlanishinmg umumiy qonuniyatlari to'g'risida ma'lumot beradi"¹.

Dunyoqarash shu bilan birga, insonning dunyoni ma'lum darajada tushunishi, anglashi, bilishi, baxolash va shular asosida amaliy o'zlashtirishidir.

U insonning dunyoni bir butun yoki turli-tuman holda ko'rishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, insonning dunyodagi o'z o'rni va rolini belgilashi hamdir. Ana shu falsafiy dunyoqarashning bir unsuri jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining o'tmish holatini ko'z oldimizda gavdalantiradigan tarix falsafasi yoki tarixiy ongdir.

Tarixiy ong genezisiga bag'ishlangan ishlarda, ko'pgina tadqiqotchilar yevropa an'analari bilan chegaralanib qoladi xolos, vaholanki tarixiy ongning dastlabki kurtaklari insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshigi - Sharqqa paydo bo'lgan.

Tarixiy ongning rivojlanishini qadimgi, o'rta asrlar bosqichlarida uni nazariy tahlili uchun ilmiy asos unsurlari paydo bo'ldi, bu davrda ilmiy nazariy jihatdan tarixiy ongni tahlil qilish tarixni fan sifatida teologik mafkura ta'siridan xalos bo'lishi bilan dastlabki qadamlar qo'yildi.

Tarix falsafasining ilk rivojiga xristian ilohiyotchisi Avliyo Avgustin (IV asr) o'z hissasini qo'shdi. Uning butun falsafiy dunyoqarashi "diniy e'tiqodsiz bilim yo'q, haqiqat yo'q" degan tamoyilga bo'ysunadi. Avgustinning xizmati shundaki u jahon tarixi to'g'risidagi xristian-teologik konsepsiyani yaratdi. U jahon tarixini xudo tomondan taqdiri azalni bitilishi natijasi deb tushuntirdi. Uning fikricha insoniyat tarixidagi har bir voqea-hodisaning mazmun - mohiyatini xudoning amri natijasidir. Avgustin tarixiy voqealar ilohiy taqdirga bog'liqdir deb uqtirdi.

Vatandoshimiz Al-Beruniy tarixiy taraqqiyot konsepsiyasiga o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri bo'lib, alloma insoniyat taraqqiyotining siklik

¹ Tulenov J.T., Gafurov E. "Falsafa. T. "O'qituvchi " 1991-y. 60-bet.

konsepsiyasini ilgari surdi. Ensiklopedist olim tarixiy taraqqiyotni turli xalqlar tarixi misolida tasvirladi. Hozirgacha Al-Beruniyning tarixchi olim sifatidagi faoliyati tadqiq etilgani yo'q. O'rta asrlarda vatanimiz tarixchilari yaratgan asarlarda tarixiy davrlashtirish mamlakatimizni turli davrlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti jarayonlari bayon qilingan. Lekin tarixning mohiyat mazmuni to'g'risidagi asarlar uchramaydi.

Fanga tarix falsafasi atamasini mashhur ma'rifatparvar Volter kiritgan edi va Volter o'zining shu nomli asariga xudoning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning progressiv taraqqiyoti g'oyasini asos qilib oldi. U tarixning borishini g'oyalarning o'zgarishiga bog'liq deb bildi. Volter qadimgi dunyo tarixchilarining asarlariga, ularning tarixiy ongiga tanqidiy ko'z bilan qaradi. Bu davr tarixiy manbalardagi juda nozik mifologiyani ajrata olmadi.

XVIII asrdan boshlab tarixiy taraqqiyot, tarixiy ong mutafakkirlar uchun asosiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Ma'rifatparvarlik asrida ma'rifatparvarlar tarixiy ongni teologiya ta'ziyqidan xalos qilib haqiqiy tarixni yozishni boshladilar. Yangi davr faylasuflari insoniyat tarixini kishilarning son-sanoqsiz kulfatlari yig'indisi deb tasvirladilar. Bu davrda tarixiy falsafiy mushohada etish keng rivojlandi. Prezidentimizning ushbu so'zlari diqqatga sazovordir "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir".¹ Bu asrda ma'rifatni xurofotga qarshi kurashi taraqqiyotda tub burilishlarga olib keldi. Iqtisodiy ko'tarilish va o'sishdan depressiya va tushkunlikka tushish, ishlab chiqarishdagi tub o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy diniy harakatlar va boshqalar har doim tarixga alohida bir ko'tarinki qiziqish bilan qarashga undagan. Bunda bazan tarix najot yo'li, to'planib qolgan ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy masalalar yechimi kaliti deb qaralgan. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotini atroflicha ushinish va tahlil qilishga harakat qilib kelindi.

Mashhur nemis faylasufi Gegel o'zining "Tarix falsafasiga doir leksiylar" asarida tarixiy ong va uning metodologiyasiga to'xtalib o'tdi, inson ongining dastlabki uchqunlaridan boshlab to fanni va ilmiy metodologiyani ongli ravishda

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 134-bet

egallab olganga qadar davom etgan evolyutsiyasini tahlil qilib chiqdi, insonning predmet faoliyatini ko'pgina muhim tomonlarini aniqladi. Kant tarixga erkinlik tushunchasi sifatida qaragan bo'lsa, Gegel tarixni dunyo ruhining o'zligini ochishi deb qaradi.

Nemis ma'rifatvarligi nazariyotchilari Gerder (1744-1803) va Kant (1724-1804) dunyo tarixi konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Gerder dunyo tarixi tushunchasiga tirik va jonsiz tabiat evolyutsiyasini kiritdi. Kant esa tarixiy taraqqiyot asosini axloqiy tamoyillardan izladi va tabiat evolyutsiyasi omillarini tarixdan ajratdi.

Ammo tarixiy taraqqiyot, tarixni tushunishda ko'pgina mutaffakirlar bazida qarama-qarshi fikrlarga kelishdi. Tarixni mushohada qilish, uning falsafiy tomonlarini tushunish bosh mavzuga aylana boshladi. XX asr boshlarida faylasuf yozuvchi Nitstshe insoniyat tarixi bu kishilarning son sanoqsiz kulfatlari yig'indisi deb tasvirladi. Gerder tarix bu insoniyatni tarbiyalash deb uqtirdi. Tarixni tushunishda uning nisbiy mustaqilligi muammosini ochib berishda G'arb faylasuflari turli xil qimmatli fikrlarni ilgari surdilar. Bir-biriga zid bo'lgan turli g'oya va fikrlar shakllandi. Pozitivizm namoyandalari manbalar tanqidining rivojlanishi, arxeologiya yutuqlari bilan qiziqmasdan, o'zlarining nazariy qarashlari bilan mavjud tarixshunoslikni tubdan qayta tashkil etishga harakat qildilar.

"Tarixiylik" namoyandalari (Dilte Vindelband, Rikkert, Kroche va boshqalar bu muammoga boshqa tomondan yondashdilar. Ularni tarixiy tadqiqotlarning natijalari qiziqtirmasdan, balki tarixiy fikrlash va mushohadaning yashirin, hali aniqlanmagan asoslari qiziqtirdi. An'anaviy empirizm (Lokk, Kondilyak) nuqtai nazaridan butun tarix ilmi dalillardan iborat va bu yerda tarixiy dalillar hissiy bilish va tajribaning mahsuli sifatida gavdalanadi.

G'arbda tarix falsafasi bo'yicha qator ilmiy qarashlar shakllandi. Bir qancha qimmatli tadqiqotlar yuzaga keldi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatidagi tarixiy ongning nazariy va metodologik qirralari g'arb tarix falsafasining taniqli namoyondalari Fevr, Gegel, Rikkert, Shopengauer, Nitshe, Klyuchevskiy,

Kollingvud, Mark Blok, Toynbi, Popper, Yaspers va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi. Tarixni falsafiy tushunish, tarixiy ong va bilimlar genezisi ularning ko'plab asarlarida bayon bayon etilib, qaysiki ularda insoniyatning tarixiy ongini shakllanish muammosi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Tarix falsafasining namoyondalarining qarashlari xilma-xil va bazida bir-birini inkor etadi. Shunga qaramasdan ularning asarlarida tarix falsafasining asosiy unsurlari ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi.

XIX asrda tarix fani metodi va metodologiyasi bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar paydo bo'ldi. Tarix fanini o'rganish bo'yicha turli yo'nalishlar maktablar (pozitivizm, klassik va hokazolar) o'z qarashlarida tarixiy taraqqiyot, tarixiy jarayon, tarix fanining mohiyat mazmuni, vazifasi to'g'risida turlicha fikrlarni bayon qildilar.

Ayniqsa XX asr tarixiy ongi bir biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil konsepsiyalarni ilgari surdi. Nemis faylasufi Shpengler umuman insoniyat tarixini lokal sivilizatsiyalar yig'indisi deb tushundi. Uning tarix falsafasi bayon qilingan asosiy asari -"Yevropa quyoshining botishi" deb nomlanadi. Shpengler nazarida urush-"oila insoniy borliqning abadiy shaklidir, urushlarsiz insoniyat yashashi mumkin emas.

U jahon tarixiy taraqqiyotining qonunlarini rad etdi. Tarix Shpenglerda bir qancha mustaqil takrorlanmaydigan tutash davriy madaniyatga, individual taqdirga ega bo'lgan tug'ilish, ravnaq topish va davrlari-yani adolescentia, juvenus, virilites, senectus kabilarni o'z boshidan kechiradigan alohida organizmlarga bo'linadi. U tarix falsafasining vazifasini har bir madaniyatning morfologik tuzilishini payqashga etib taqadi va har bir madaniyatning zamirida madaniyatning "joni" yotadi deb tushuntirdi. Shpenglarning fikricha har bir alohida madaniyat o'z gullab yashnashining cho'qqisiga chiqib sivilizatsiyaga aylanadi. Prezidentimizning quyidagi so'zlarini bu o'rinda keltirish joizdir: "Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirini mahsulidir."¹

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 146-bet

Mahshur olim G.Rikkert (1863-1936-yil) -tarixiy fanlar va falsafiy tadqiqot metodologiyasiga alohida e'tibor berdi. Rikkertning fikricha, hamma voqealar individuallashtirilgan jamiyat tarixida ob'yektiv qonunlar yo'q. Tarix fanida individuallashtiruvchi abstraksiya metodi bor va bu ayrim voqea va hodislarning inson erkin ravishda tanlab oladigan axloqiy "qiymatlar" bilan aniqlashga imkon beradi. Rikkert tarixiy ongning asosi bo'lgan tarixiy qiziqish tushunchasining mazmun va tuzilishini tahlil qilishga urinib ko'rgan metodologlardan biridir.

Arnold Toynbi (1889-1975 y) ning insoniyatning ijtimoiy -tarixiy taraqqiyotini local sivilizatsiyalar girdobi nazariyasi ruhida qayta mushohada qilishga " harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning tarix falsafasiga doir asosiy asari -"Tarixni mohiyati" deb nomlanadi. Toynbi insoniyat tarixini o'rganishda Shpenglerga ergashib jahon tarixini bir xildagi fazalardan: tug'ilishi, o'sish, yemirilish, buzilish va halok bo'lish fazalaridan o'tuvchi" sivilizatsiyalar yig'indisi deb qaradi. Tarixning harakatlantiruvchi kuchlari muammosini qarab chiqar ekan Toynbi "Xudoning karomatini tarixni mazmuni sifatida e'tirof qilish bilan shaxslarga , ijodiy individlar yoki ijodiy ozchilikka " sig'inishi orqali xudoning jamolini ko'rishga muayassar bo'lish umidini birga qo'shadi.

Toynbining zamondoshi Yaspers (1883-1969-y) tarix chuqur mushohadaga mavjud, lekin u inson bilishi uchun tushunarsiz" deb tasdiqladi. U olamning har qanday ratsional manzarasini qandaydir majoziy narsa sifatida hech qachon oxirigacha anglab bo'lmaydigan ruhiy intilishlarning" ratsionallashuvi sifatida qaradi. Yaspersning bu fikri diqqatga sazovor, chunki tarixda voqea-hodisalarni mohiyati - mazmuni ko'pincha ochiq aksini topmaydi. Popper ham ob'yektiv tarixiy zaruriyatning zarurligini unga asoslangan ilmiy ijtimoiy bashoratning mumkinligini rad etdi, u Rikkert va Vindelbandga ergashib tarixning vazifalarini ayrim voqealarni o'rganishdan iborat qilib qo'ydi. Popper uchun tarix fani tushunib bo'lmaydigan voqealar yig'indisidir.

Tarix falsafasida fransuz olimi Mark Blok va R.Kollingvud alohida o'rin tutadi. G'arbda tarixiy taraqqiyot va tarixiy ong haqida faylasuflar bir xil fikrga

kela olmadilar, ular uchun tarix o'zining ko'pgina qirralari bilan mavhum va yashirin bo'lib qolaveradi.

O'tmish, hozirgi zamon va kelajak tushunchalarining nisbati hamda o'zaro aloqasi masalasida biz Z.Orudjev va T.Kuznetsovalarning «o'tmishni vayron qiluvchi har qanday harakat — sivilizatsiyaga qarshi jinoyat. O'tmish, o'tgan va eski — bir narsaning o'zi emas. O'tmish — hozirgi moddiy yoki ideal hodisani, predmetlar olamini yoki hodisalar olamini (biron-bir shaklda) belgilovchi (vaqt). O'tgan — (hozirgi) vaqt tomonidan bosib o'tilgan, boy berilgan o'tmish. Eski (eskirgan) — vayron qiluvchi (hozirgiga to'sqinlik qiluvchi) o'tgan vaqt, bu — yo'qolib borayotgan, hozirgina amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan hodisa», «o'tmish eskirgan, o'tilgan vaqt borasida emas, balki o'zining bunyodkorligi bilan boqiydir», shu bois «sivilizatsiya o'tmish bilan hozirning birligi, bu hozirni o'tmish orqali idrok etishdir».

Tarixiy ongning dastlabki ko'rinishi bu tarixiy qiziqishdir. "Tarixiy qiziqish tushunchasining mazmuni va strukturasi tahlil qilishga urinib ko'rgan dastlabki metodologlardan biri Rikkertdir.

XX asr boshlarida faylasuf yozuvchi Nitshe insoniyat tarixi bu kishilarning son sanoqsiz kulfatlari yig'indisi deb tasvirladi. Gerder tarix bu insoniyatni tarbiyalash deb uqtirdi. Kant tarixga erkinlik tushunchasi sifatida qaragan bo'lsa, mashhur nemis mutaffakiri Hegel tarixni dunyo ruhining o'zligini ochishi deb qaradi.

Tarixni tushunishda uning nisbiy mustaqilligi muammosini ochib berishda G'arb faylasuflari turli xil qimmatli fikrlarni ilgari surdilar. Bir-biriga zid bo'lgan turli g'oya va fikrlar shakllandi. Pozitivizm namoyandalari manbalar tanqidining rivojlanishi, arxeologiya yutuqlari bilan qiziqmasdan, o'zlarining nazariy qarashlari bilan mavjud tarixshunoslikni tubdan qayta tashkil etishga harakat qildilar.

"Tarixiylik" namoyandalari (Dilte Vindelband, Rikkert, Kroche va boshqalar) bu muammoga boshqa tomondan yondashdilar.

Ularni tarixiy tadqiqotlarning natijalari qiziqtimasdan, balki tarixiy fikrlash va mushohadaning yashirin, hali aniqlanmagan asoslari qiziqtirdi.

An'anaviy empirizm (Lokk, Kondilyak) nuqtai nazaridan butun tarix ilmi dalillardan iborat va bu yerda tarixiy dalillar hissiy bilish va tajribaning mahsuli sifatida gavdalanadi.

Tarix insoniyat egallagan bilimlardan biri sifatida ijtimoiy-hayotning turli jabhalarini qamrab oladi. Tarix insoniyat hayotining umumiy tafsilotidir. Agar tarixni keng ma'noda tushunadigan bo'lsak, tarixiy tadqiqot va izlanishlar doirasi cheksizdir.

Ammo tarixda alohida shaxs tarixiy vaziyatga ko'rinarli va sezilarli ta'sir eta olmaydi.

Diniy nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy taraqqiyot, aynan tarixdan tashqarida yotadigan, ammo unga hal qiladigan darajada ta'sir etkazadigan kuchlarga bog'liq.

Ammo ko'pgina hollarda ijtimoiy o'zgarishlarning ibtido sababchisi sifatida, bazida buyuk shaxs, bazida amorf massa, "braun" harakati" ko'rinishlarida inson tarixiy harakatning dalili bo'lib keldi.

Tarix nafaqat insoniyat faoliyati va merosi, balki bu insoniyatning muayyan vaqt oralig'idagi harakatlari va voqealar majmuidir. Tarix shu bilan birga vaqt uyg'unligidir, u faqat vaqtda mavjuddir.

Yangi davr faylasuflari insoniyat tarixini kishilarning son-sanoqsiz kulfatlari yig'indisi deb tasvirladilar. Bu davrda tarixiy falsafiy mushohada etish keng rivojlandi. G'arbda tarix falsafasi bo'yicha qator ilmiy qarashlar shakllandi. Bir qancha qimmatli tadqiqotlar yuzaga keldi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatidagi tarixiy ongning nazariy va metodologik qirralari g'arb tarix falsafasining taniqli namoyondalari Fevr, Gegel, Rikkert, Shopengauer, Nistshe, Klyuchevskiy, Kollingvud, Mark Blok, Toynbi, Popper, Yaspers va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi. Tarixni falsafiy tushunish, tarixiy ong va bilimlar genezisi ularning ko'plab asarlarida bayon bayon etilib, qaysiki ularda insoniyatning tarixiy ongini shakllanish muammosi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Tarix falsafasining

namoyondalarining qarashlari xilma-xil va bazida bir-birini inkor etadi. Shunga qaramasdan ularning asarlarida tarix falsafasining asosiy unsurlari ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi.

Fanga tarix falsafasi atamasini mashhur ma'rifatparvar Volter kiritgan edi va Volter o'zining shu nomli asariga xudoning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning progressive taraqqiyoti g'oyasini asos qilib oldi. U tarixning borishini g'oyalarning o'zgarishiga bog'liq deb bildi.

Volter qadimgi dunyo tarixchilarining asarlariga, ularning tarixiy ongiga tanqidiy ko'z bilan qaradi. Bu davr tarixiy manbalaridagi juda nozik mifologiyani ajrata olmadi. U g'oya mafkurani tarixiy taraqqiyotdagi o'rniga alohida urg'u berdi.

Tarix falsafasining ilk rivojiga xristian ilohiyotchisi Avliyo Avgustin o'z hissasini qo'shdi. Uning butun falsafiy dunyoqarashi "diniy e'tiqodsiz bilim yo'q, haqiqat yo'q" degan tamoyilga bo'ysunadi. Avgustinning xizmati shundaki u jahon tarixi to'g'risidagi xristian-teologik konsepsiyani yaratdi. U jahon tarixini xudo tomondan taqdiri azalni bitilishi natijasi deb tushuntirdi. Uning fikricha insoniyat tarixidagi har bir voqea-hodisaning mazmun - mohiyatini xudoning amri natijasidir.

Avgustin tarixiy voqealar ilohiy taqdirga bog'liqdir deb uqtirdi. Avgustin fikriga ko'ra tarixiy jarayonning asosida xudoning karomati yotadi.

Nemis faylasufi shpengler umuman insoniyat tarixini local sivilizatsiyalar yig'indisi deb tushundi. Uning tarix falsafasi bayon qilingan asosiy asari - "Yevropa quyoshining botishi" deb nomlanadi. Shpengler nazarida urush-"oily insoniy borliqning abadiy shaklidir, urushlarsiz insoniyat yashashi mumkin emas. U jahon tarixiy taraqqiyotining qonunlartini rad etdi. Tarix Shpenglerda bir qancha mustaqil takrorlanmaydigan tutash davriy madaniyatga, individual taqdirga ega bo'lgan tug'ilis, ravnaq topish va davrlari-ya'ni adolescentia, juvenus, virilites, seneo'us kabilarni o'z boshidan kechiradigan alohida organizmlarga bo'linadi. U tarix falsafasining vazifasini har bir madaniyatning morfologik tuzilishini payqashga etib taqadi va har bir madaniyatning zamirida

madaniyatning "joni" yotadi deb tushuntirdi. Shpengler tabiricha har bir alohida madaniyat o'z gullab yashnashining cho'qqisiga chiqqach sivilizatsiyaga aylanadi. Shpengler tarixiy taraqqiyotni alohida madaniyatlar ko'rinishida tasavvur qiladi. Ammo xalqlar, madaniyatlarning bir -biri bilan bog'liqligini, aloqasini nazardan chetda qoldiradi. Shpengler tarixning "Qadimgi dunyo", "o'rta asrlar", "Yangi zamon" tarixi kabi bo'linishlarga qarshi chiqdi.

Nemis ma'rifatparvarligi nazariyotchilari Gerder (1744-1803) va Kant (1724-1804) dunyo tarixi konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Gerder dunyo tarixi tushunchasiga tirik va jonsiz tabiat evolyutsiyasini kiritdi. Kant esa tarixiy taraqqiyot asosini axloqiy prinsiplardan izladi va tabiat evolyutsiyasi omillarini tarixdan ajratdi.

Mahshur olim G.Rikkert (1863-1936-yil) -tarixiy fanlar va falsafiy tadqiqot metodologiyasiga alohida e'tibor berdi.

Rikkertning fikricha, hamma voqealar individuallashtirilgan jamiyat tarixida ob'yektiv qonunlar yo'q. tarix fanida individuallashtiruvchi abstraksiya metodi bor va bu ayrim voqea va hodislarning inson erkin raviushda tanlab oladigan axloqiy "qiymatlar" bilan aniqlashga imkon beradi.

Rikkert tarixiy ongning asosi bo'lgan tarixiy qiziqish tushunchasining mazmun va tuzilishini tahlil qilishga urinib ko'rgan metodologlardan biridir. Uning fikricha tarixiy qiziqish ob'yektiv jarayonlar bilan emas, balki qadriyatlar tizimi bo'yicha aniqlanadi. "

Rikkert bo'yicha ahamiyatlilik ob'yektiv emas va u qadriyatlarga bog'liq. Arnold Toynbi (1889-1975 y) ning insoniyatning ijtimoiy -tarixiy taraqqiyotini local sivilizatsiyalar girdobi nazariyasi ruhida qayta mushohada qilishga " harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning tarix falsafasiga doir asosiy asari -"Tarixni mohiyati" deb nomlanadi.

Toynbi insoniyat tarixini o'rganishda Shpenglerga ergashib jahon tarixini bir xildagi fazalardan: tug'ilishi, o'sish, yemirilish, buzilish va halok bo'lish fazalaridan o'tuvchi "sivilizatsiyalar yig'indisi deb qaradi. Tarixning harakatlantiruvchi kuchlari muammosini qarab chiqar ekan Toynbi "Xudoning

karomatini tarixni mazmuni sifatida e'tirof qilish bilan shaxslarga , ijodiy individlar yoki ijodiy ozchilikka " sig'inishi orqali xudoning jamolini ko'rishga muvassar bo'lish umidini birga qo'shadi.

Toynbining zamondoshi Yaspers (1883-1969-y) tarix chuqur mushohadaga mavjud, lekin u inson bilishi uchun tushunarsiz" deb tasdiqladi. U olamning har qanday ratsional manzaraasini qandaydir majoziy narsa sifatida hech qachon oxirigacha anglab bo'lmaydigan ruhiy intilishlarning" ratsionallashuvi sifatida qaradi. Yaspersning bu fikri diqqatga sazovor chunki tarixda voqea-hodisalarni mohiyati — mazmuni ko'pincha ochiq aksini topmaydi. Popper ham ob'yektiv tarixiy zaruriyatning zarurligini unga asoslangan ilmiy ijtimoiy bashoratning mumkinligini rad etdi, u Rikkert va Vindelbandga ergashib tarixning vazifalarini ayrim voqealarni o'rganishdan iborat qilib qo'ydi. Popper uchun tarix fani tushunib bo'lmaydigan voqealar yig'indisidir.

Gegel o'zining "Tarix falsafasiga doir leksiylar" asarida tareixiy ong va uning metodologiyasiga to'xtalib o'tdi, nson ongining dastlabki uchqunlaridan boshlab to fanni va ilmiy metodologiyani ongli ravishda egallab olganga qadar davom etgan evolyutsiyasini tahlil chiqdi, insonning predmet faoliyatini ko'pgina muhim tomonlarini aniqladi, inson va uning tarixini "uning o'z mehnati natijasi" (Marks) deb qaradi.

Tarix falsafasida fransuz olimi Mark Blok va kollingvud alohda o'rin tutadi. G'arbda tarixiy taraqqiyot va tarixiy ong haqida faylasuflar bir xil fikrga kela olmadilar, ular uchun tarix o'zining ko'pgina qirralari bilan mavhum va yashirin bo'lib qolaveradi.

- Tarixiy ongning rivojlanishini qadimgi, o'rta asrlar bosqichlarida uni nazariy tahlili uchun ilmiy asos unsurlari paydo bo'ldi, bu davrda ilmiy nazariy jihatdan tarixiy ongni tahlil qilish tarixni fan sifatida teologik mafkura ta'siridan xalos bo'lishi bilan dastlabki qadamlar qo'yildi.
- Tarix falsafasining ilk rivojiga xristian ilohiyotchisi Avliyo Avgustin (IV asr) o'z hissasini qo'shdi. Uning butun falsafiy dunyoqarashi "diniy e'tiqodsiz bilim yo'q, haqiqat yo'q" degan tamoyilga bo'ysunadi. Avgustinning xizmati

shundaki u jahon tarixi to'g'risidagi xristian-teologik konsepsiyani yaratdi. U jahon tarixini xudo tomondan taqdiri azalni bitilishi natijasi deb tushuntirdi.

- Vatandoshimiz Al-Beruniy tarixiy taraqqiyot konsepsiyasiga o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri bo'lib, alloma insoniyat taraqqiyotining siklik konsepsiyasini ilgari surdi. Ensiklopedist olim tarixiy taraqqiyotni turli xalqlar tarixi misolida tasvirladi. Hozirgacha Al-Beruniyning tarixchi olim sifatidagi faoliyati tadqiq etilgani yo'q. O'rta asrlarda vatanimiz tarixchilari yaratgan asarlarda tarixiy davrlashtirish mamlakatimizni turli davrlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti jarayonlari bayon qilingan. Lekin tarixning mohiyat mazmuni to'g'risidagi asarlar uchramaydi.
- XVIII asrdan boshlab tarixiy taraqqiyot, tarixiy ong mutafakkirlar uchun asosiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Ma'rifatparvarlik asrida ma'rifatparvarlar tarixiy ongni teologiya ta'ziyqidan xalos qilib haqiqiy tarixni yozishni boshladilar.
- Fanga tarix falsafasi atamasini mashhur ma'rifatparvar Volter kiritgan edi va Volter o'zining shu nomli asariga xudoning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning progressiv taraqqiyoti g'oyasini asos qilib oldi. U tarixning borishini g'oyalarning o'zgarishiga bog'liq deb bildi. Volter qadimgi dunyo tarixchilarining asarlariga, ularning tarixiy ongiga tanqidiy ko'z bilan qaradi. Bu davr tarixiy manbalaridagi juda nozik mifologiyani ajrata olmadi.
- G'arbda tarix falsafasi bo'yicha qator ilmiy qarashlar shakllandi. Bir qancha qimmatli tadqiqotlar yuzaga keldi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatidagi tarixiy ongning nazariy va metodologik qirralari g'arb tarix falsafasining taniqli namoyondalari Fevr, Gegel, Rikkert, Shopengauer, Nistshe, Klyuchevskiy, Kollingvud, Mark Blok, Toynbi, Popper, Yaspers va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi. Tarixni falsafiy tushunish, tarixiy ong va bilimlar genezisi ularning ko'plab asarlarida bayon bayon etilib, qaysiki ularda insoniyatning tarixiy ongini shakllanish muammosi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

II Bob. Tarixiy ong va milliy o'zlikni anglash mushtarakligi

2.1. Milliy o'zlikni anglash tushunchasi

"Bosib o'tilgan yo'limizga bir nazar tashlaylik. Agar yaqindagina boshdan kechirgan mashaqqatli kunlarimizni yana bir karra eslasak, shuni yaqqol ko'rish mumkinki, bizlar eng qiyin davrlarda ham o'zimizni dadil tutdik, haqiqat va adolat o'z tarafimizda ekaniga qattiq ishondik"¹

Qadimgi yunon faylasufi Fales shunday degan edi: "Eng qiyini - o'zingni anglay olishingdir. o'zligini anglagan shaxs hech qachon to'g'ri yo'ldan adashmaydi. Aksincha unga xizmat qiladi." Bugun chuqur o'zgarishlar davrida yashamoqdamiz. Jamiyatda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar kechmoqda. Ayrim huquqbuzarliklar yuz berib, bularga ayrim yoshlar aralashib qolmoqda. Insoniyat yaratilibdiki, u o'zligini anglashga, o'z qimmatini tiklashga intilib, tabiiy mavjudot sifatida oliy qadriyat ekanligini tushunishga urinib keladi. o'zining "men kimman?" degan savolga o'z tarixiy ong, bilimi taraqqiyoti darajasida bu savolga javob topishga harakat qilib keldi. Yoshligidan o'zligini anglashga, o'z qadr-qimmatini anglashga harakat qilib unga intilgan inson yoki bolani kelajakda ma'nan yetuk, mustaqil, jamiyatda kuchli inson bo'lib etishishiga shubha yo'q. o'zligini anglagan kishi olamning rang-barangligi bilan birga hayot mazmunini, o'zining shunchaki tiriklik va mavjudlik belgisi emas, aksincha, tabiatning betakror mo'jizasi ekanligini, shu asnoda inson qadri-qimmatini tobora teranroq anglay boshlaydi. Milliy o'zlikni anglagan kishi esa eng avvalo o'z millatini, o'mishini yaxshi bilgan, uni qadrlay oladigan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar va holatlarda boyitib boradigan komil insondir.

Tarixiy bilim doimo jamiyatni o'zligini anglashini, faqat tarixiy istiqbolda tushunishi mumkin. Shaxs, induvid ongida fuqarolik his-tuyg'usi uyg'onishi uchun tabiiyki o'z ildizini uzluksiz izlash bilan doimo mashg'ul bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot, tarixiy jarayon, tarixiy voqelik, hodisani bilish yoki ularni mohiyat-mazmunini chuqur anglash shaxs va jamiyat kamolotida tub siljishlarni yuz berishini zaruriy omili bo'lib xizmat qiladi.

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 146-bet

Butun tarixni qadimgi davrdan boshlab ilmiy va haqqoniy yoritishiga ehtiyoj mavjud. Boshqalarni unitgan holda faqat o'z tarixiga qiziqish bu favqulodda xavfli va madaniy yakkalanib qolishga va intellektual provensializm kasalligiga muhtalo bo'lib qolishga olib keladi. Hozirgi kunda tarix fanini tushuncha apparatini, tadqiqotlar muammosini faqat vatan tarixi bilan cheklamay, balki jahon sivilizasiyasi muammolari taqdiriga qaratish zarur, chunki jahon miqyosida integratsiya jarayoni kuchayib bormoqda. Tarixchilar erkin va istiqbolli fikrlashlari lozimligini Prezidentimiz ta'kidlagan edilar "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkani davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"¹.

Tarix fanini tushkinligini bartaraf qilishning shartlaridan biri bu jahon tarixi fanining to'plagan boy tajribasini o'rganish, o'zlashtirishdir. Bizning tarix fanimiz keyingi 20-30 yil ichida jahon tarixi fani to'plagan tajribadan xabarsiz qoldi. Hozirgi kunda tarix va tarix metodologiyasi sohasidagi asarlarni chuqur va har tamonlama tahlil qilish va o'zlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Eng asosiysi tarix tafakkuri taraqqiyotidagi yangi an'analarni, yangi yondashuvlar, uni tahlili, sintezida insoniyat amaliyotiga chuqur va boshqacha qarashiga imkon beradigan yangi metodlarni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Jahon tarixi fani erishgan yutuqlaridan xabarsiz qolish, uni o'rganmaslik, uni taraqqiyot darajasidan orqaga qilishga va milliy tarix fanimizni qoloqligiga olib keladi.

Taniqli fransuz tarixchi L. Fevrning fikricha tarixchilar ma'lum davr kishisiga tegishli dunyoqarash usullari, ong ko'nikmalarini aniqlashga intilishlari lozim. Chunki o'z davrining odamlari ularni "avtomatik qo'llab, ular to'g'risida o'ylamay ularni tanqid qilmay qo'llaganlar" . Bunday yondashuv asosida odamlarni ijtimoiy o'zini tutishi bilan mahkam bog'langan ongning yanada chuqurroq qatlamlariga kirishga, bu odamlar o'z irodasidan tashqari gaplashganlari to'g'risida "eshitish" mumkin. Bunday yondashuv davrni so'z lug'atini uni odamlarga xos ramziy xislatini diqqat bilan o'rganishga yordam

¹ I. A. Karimov. "o'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent. "o'zbekiston". 1997 yil. 140-betlar

beradi. Tarix fan sifatida hozirgi jamiyatda tarixni o'rnini tahlil qilishga kirishib, o'tmishda mutafakkirlar uni qanday sharxlaganliklarini esga olamiz.

Qadimgi Rimlik siyosiy arbob Sitseron "Tarix o'qituvchisi" o'tmish vaqtlarni bilish va dunyo mamlakatlarini bilish-insoniyat aqlini bezaydi deb, Alisher Navoiy "o'tmish tarixini o'rganish lozim" deb hisoblagan edilar.

O'tmishda o'tgan tarixchilar tarixni jamiyat taraqqiyotidagi o'zni muammosiga bir necha bor murojaat qilgan edilar; P. M. Karamzin yozgan edi: "Tarix bu xalqlarni muqaddas uyi, ularni borligi va faoliyati kashfiyot va qoidalari ajdodlarning avlodlarga vasiyati;" hozirni va kelajak misolni to'ldirish va tushuntirishdir. V. O. Klyuchevskiy yozgan edi: "Ajdodlarni o'rgana borib, o'zimizni bilamiz, tarixni bilmasdan turib, biz o'zimizni tasodifiy bilmaydigan deb tan olishimiz lozim. Qanday va nima uchun dunyoga keldik, nima uchun yashayapmiz, qanday va nimaga intilishimiz lozim" M. Behbudiy, "qabilasining ismini va yetti otasini otini bilmay turg'onlarni "Qul manqurt""deganlar.

O'tmishda ham, hozirda ham tarixni foydali ekanligi ijtimoiy foydali ekanligiga shubha bilan qaraydigan mumtoz fan vakillari bor. Misol uchun Gegel, Volter, Dekart, Jan Jak Russo va boshqalarni aytish mumkin. Jamiyatda ilgari ham tarixni o'zni va roli to'g'risidagi fikrlarda birdamlik yo'q edi, hozir ham bo'lmaydi. Shu sababli tarixga o'ziga xos ijtimoiy-madaniy noyob hodisa deb qarash lozim.

O'zlikni anglash insonning kamol topishidagi muhim jarayon bo'lib, shaxs o'z xalqini o'tmish tarixi, madaniyatini noyob namunalarini o'rganib ma'lum bir tushuncha hosil qiladi, o'z bilimini oshiradi, dunyoqarashini hosil qiladi. Bu o'z navbatida uni o'zligini anglashiga olib keladi. o'zligini anglagan inson har tomonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchi teran anglab yetgan bo'ladi.

O'zligini anglagan induvid o'z oilasi, shahari, viloyati, Vatani taqdiriga befarq bo'lmaydi, ularni taqdiri, ishi uchun o'zini bag'ishlaydi.

Prezidentimizning "o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi"-degan fikri bejiz emas. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov "Tarixsiz kelajak yo'q",-deb

ta'kidlaganda, ajdodlar ishini davom ettirish, kamchiliklaridan saboq o'zi bir tarbiya jarayonidir. Milliy o'zlikni anglashda tarix fanini ahamiyati, o'rni juda katta. Tarix serqirra, uning bir necha muhim funksiyalari bor. Ana shunday funksiyalardan biri tarbiyadir. Tarix fani awalo o'tmishni qayta tiklash inson ko'z oldida mavhum darajada gavdalantiradi. Uning eng asosiy funksiyalaridan biri ilmiy-amaliy dunyoqarashni shakllantirishdir. Tarixni o'qib-o'rganish tarixiy ongni, tarixiy xotirani shakllanishiga yordam beradi.

Tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllanishi uchun tarix darslarini o'qitishning sifati muhim o'rin tutadi. Shu sababli mazmun-mohiyati chuqur bo'lgan tarix darsliklari, o'quv qo'llanmalari hozirgi kunda qimmatli ahamiyat kasb etadi. Tarixiy o'tmish insoniyat jamiyati paydo bo'lgan vaqtdan o'rganilgani ma'lum. U turli sinfiy, tarixiy, falsafiy diniy va madaniyat nuqtai-nazaridan o'rganiladi. Tarixiy bilimga bo'lgan ijtimoiy tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj ham bo'g'langan. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy "xotirasi" o'tmish to'g'risidagi bilim sifatida chiqib, ko'pgina ijtimoiy ahamiyati yurish-turish namunalarini beradi. Tarixiy shaxslarning faoliyatlari, turlitarixiy vaziyatlar, ma'lum bir ziddiyatlarni echish usullari ushbu etnos va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

O'zligini, tarixini bilmagan inson yiki o'sha yurt farzandi men shu farzandi deya olishi mumkinmi? o'zlikni anglamagan bunday insonlar o'z manfaatini yo'lida har qanday ishga tayyor inson bo'lib yetishishi yoki manna yuksalmagan, o'zi fikri, qadr-qimmatini bilmaydigan bo'lib chiqishi mumkin. Mustamlaka davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi bobolarimiz o'z zamonaida bosh ko'tarib xalqimizni yuksaltirishga milliy o'zlikni anglashni naqadar muhimligini yaxshi tushungan holda xalqimizni uyg'onishga chorlaganlar. Jadidlikni taniqli arboblardan biri M Behbudiy shunday degan edi: Xo'sh bu bobolarimizni bilmagan yoki tariximizni, kelib chiqishimizni bilmagan inson men o'zbek farzandiman deyishi mumkinmi? Shu boisdan har qanday inson

o'zligini bilmagan insonlarga saboq bo'lishi, kerak bo'lsa ularga turtki bo'lib ularni yuksalishiga, ularni o'zligini anglashga da'vat qilishlari lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Bugun O'zbekistondagi har bir vijdonli insonning muqaddas burchi Mustaqilligimizni mustahkamlash va uni ximoya qilishdir" degan so'zlarni aytgan edilar. Albatta o'zligini, o'z qadrini bilgan insongina Mustaqilligimizni saqlab qolishga uni himoya qilishga harakat qiladi. Bundan ko'rish mumkinmi biz yetuk va kuchli xalq ekanligimizni bilishimiz va shu yurt farzandi ekanligimizdan faxrlanishimiz mumkin. Ma'lumki, har bir xalq o'zining milliy uyg'onish ibtido (boshlanish)sida o'zining kelib chiqishi tarixini, qadimiy davlatchilik an'analariniva ma'naviy qadriyatlarini o'rganishga ehtiyoj sezadi".¹

Ma'lumki qadimgi O'rta Osiyo hududida sak, massaget, sug'diy, xorazmiy, baqtriyaliklar tariximizda o'chmas iz qoldirgan. Ularning kelib chiqishi, urf odati, faoliyati, ishlab chiqqan qurollarining qanday darajada rivojlangani haqida qiziqish hosil bo'ladi. Ularning turmush tarzi, o'zligini saqlab qolish uchun dushmanga nisbatan nihoyatda og'ir qahramomona kurashi, to'g'risida ko'p asarlardan bizgacha yetib kelgan. Bu tarixiy manbalarni o'rganish tarixiy ong, tarixiy xotirani uyg'otish va shu asosida individ ongida milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish demakdir.

Shuning uchun ham, yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlab o'tkanidek "Bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat - bu ma'naviy jasorat", deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz².

Har qaysi fuqaro men shu millat farzandi ekanman, millatimizning ibtidosi qayerda?³ degan savoliga javob topishga harakat qiladi.

Shu millat farzandi bo'lgan inson o'z tarixini bilmasdan turib, kelajagini, istiqbolini qura olmaydi. Shu orada yurtboshimiz I.A. Karimovning fikrini misol

¹ O'zbekiston tarixi 1-son 2002y. Matboboyev o'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

² I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari 159 bet. (o'zbek tili)

³ O'zbekiston tarixi 1-son 2002y. Matboboyev O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

qilib olsak xato bolmasdi. "Yangisi qurmasdan eskisini buzma" degan fikrlarida bir dunyo fikr borligi shundoqqina ko'rinib turibdi.

Karim Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakillanishi jarayoni"ga bag'ishlangan fundamental monografiyasi mazkur muhim va dolzarb muammoni yechish yo'lidagi dastlabki qadam deyish mumkin¹.

O'zbekiston zaminida butun islom olamining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan islom huquqshunosligi va xadishshunosligi bo'yicha Hakim at-Termiziy, Imom Buxoriy, Burxoniddin al-Marg'inoniy kabi yirik mutafakkirlarning yetib chiqqanligi buning yorqin dalilidir². Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek "Bizning tushunishimizda qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish o' tarixiy o'tmishimizdan voz kechish" degani emas. Bu bir yoqlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir³. Respublikada haqiqatdan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarsi, an'analari , urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi⁴.

Millat uni tashkil qilgan individual ongga ta'sir qiladi. Millat faqatgina hukmron temperamentga ega bo'lib qolmay, balki o'z tarixiga ega. Bu tarixni yagona odam o'tib bo'lgan milliy tuyg'u va bu madaniyat darajasi, individni ma'lum bir nuqtasigacha bu tarixni ko'radi.

I.A.Karimovning "Millatimizning, xalqimizning o'zligini anglashiga, o'zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo'qotmasdan ularni tiklab, avaylab, e'zozlab, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qilishi kerak."⁵

Vaqtini bilish uni hayot yo'lini barcha nuqtalarida kuchli yo'naltiradi , ko'taradi yoki pasaytiradi. Shu nuqtai-nazaridan jamoa onggi va ma'lum ijtimoiy guruhni ta'siri to'g'risida, uni kayfiyati to'g'risida mushohoda qilish mumkin.

¹ O'zbekiston tarixi ilmiy juraal. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan nashriyoti".

² "O'zbekiston tarixi". Toshkent. o'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan nashriyoti".

³ I.A. Karimov XXI asr bosag'asi favfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari (151 bet.)

⁴ I.A. Karimov o'zbekiston buyuk kelajak sari. 9 bet 1999 yil "O'zbekiston"nashriyoti.

⁵ I. A. Karimov. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" "O'zbekiston" 2000

Tarix bilan shug'ullanish lozim. Qaysidir darajada u bizni so'nggi barqarorlikni yaratgan hozirgi yashashga yordam beradi. Faqat qo'rquv hissi bilangina, faqatgina navbatdagi yoppasiga bombadan yashirinadigan qochish, qandaydir bir necha soatga saqlanib qolish, bosh ustiga tegishi ko'rinib turgan tom va buzilgan shipni saqlab qolish fikri bilan.

Tarixiy bilim doimo jamiyatni o'zligini anglashini eng muhimi faqat tarixiy istiqbolda tushunish mumkin. Ongida fuqarolik his-tuyg'usi uyg'onishi uchun tabiiyki o'z ildizini uzluksiz izlash bilan doimo mashg'ul bo'ladi.

Yurtboshimizning "o'zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasida ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi¹."

Butun tarix qadimgi davrdan boshlab ilmiy va haqqoniy yoritishga ehtiyoj mavjud. Faqat o'z tarixiga qiziqish boshqalarni unitgan holda buv favqulodda xavfli va madaniy yakkalanib qolishga va intellektual provensializm kasalligiga muhtalo bo'lib qolishiga olib keladi. Hozirgi kunda tarix fanini tushuncha apparatini tadqiqotlar muammosini faqat vatan tairxi bilan cheklamay balki jahon svilizasiyasi muammolari taqdiriga qaratish zarur uni vaziyat o'zgardi. Tarixchilar erkin va istiqbolli fikrlashlari lozimligini prezidentimiz ta'kidlagan edilar. Tarix fanini tushkinligini bartaraf qilishning shartlaridan biri bu jahon tarixi fanining juda katta tajribasini o'rganish, to'plaganni o'zlashtirishdir. Bizning tarix fanimiz keyingi 20-30 yil ichida jahon tarixi fani to'plagan tajribadan xabarsiz qoldi. Hozirgi kunda tarix va tarix metodologiyasi sohasidagi asarlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish va o'zlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Eng asosiysi tarix tafakkuri taraqqiyotidagi yangi an'analarni materiallarga yangi yondashuvlar uni tahlili, sintezida insoniyat amaliyotiga chuqur va boshqacha kirishiga imkon beradigan yangi metodlarni aniqlash. Jahon tarixi fani erishgan yutuqlaridan xabarsiz qolish, uni o'zgarmaslik, uni taraqqiyot darajasidan orqaga qilishga va milliy tarix fanimizni qoloqligiga olib keladi. "Muayyan tarixiy davrda yashayotgan ayrim kishilar ongning rivojlanishi, o'zining tarixiy hayotini ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan harakterlanadi va tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy

¹ I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" "Ma'naviyat" 2008, 83-bet

sharoitga bog'liq bo'lib, ular bilan belgilanadi. Shuning uchun bilim doimo tarixiydir, hamma narsani bilsih nisbiy, chunki u tarixiy sharoitga bog'liqdir. Lekin, bu tarixiy nisbiy bilimda mutloqiy haqiqat ko'rinishida umumiylik bordir¹."

Fevrning fikricha tarixchi ma'lum davr kishisiga tegishli dunyoqarash usullari, ong ko'nikmalarini aniqlashga intilishlari lozim. Chunki, o'z davrining odamlari ularni "avtomatik qo'llab, ular to'g'risida o'ylamay ularni tanqid qilmay qo'llaganlar" . Bunday yondashuv asosida odamlarni ijtimoiy o'zini tutishi bilan mahkam bog'langan ongning yanada chuqurroq qatlamlariga kirishga bu odamlar o'z irodasidan tashqari gaplashganlari to'g'risida "eshitish" mumkin. Bunday yondashuv davrni so'z lug'atini, uni odamlarga xos ramziy xislatini diqqat bilan o'rganadi.

Tarix fan sifatida hozirgi jamiyatda tarixni o'rnini tahlil qilishga kirishib o'tmishda mutafakkirlar uni qanday sharxlaganliklarini esga olamiz. Qadimgi Rimlik siyosiy arbob Sitsiron "Tarix o'qituvchisi" o'tmish vaqtlarni bilish va dunyo mamlakatlarini bilish-insoniyat aqlini bezadi deb Alisher Navoiy "Otmish tarixini o'rganish lozim" deb hisoblagan edilar.

Yurtboshimiz "Inson o'zligini anglagani nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi"-deb ta'kidlagan edi².

O'tmishda o'tgan tarixchilar tarixni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni muammosiga bir necha bor murojaat qilgan edilar; P. M. Karamzin yozgan edi; "Tarix bu xalqlarni muqaddas uyi, ularni borligi va faoliyati kashfiyot va qoidalari ajdodlarning avlodlarga vasiyati;" hozirni va kelajak misolni to'ldirish va tushuntirishdir. V. O. Klyuchevskiy yozgan edi: "Ajdodlarni o'rgana borib, o'zimizni bilamiz, tarixni bilmasdan turib, biz o'zimizni tasodifiy bilmaydigan

¹ A. Ibrohimov va boshqalar. "Vatan tuyg'usi". Toshkent. 1996, 25-bet

² I. A. Karimov. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" "O'zbekiston" 2000. 138-bet

deb tan olishimiz lozim. Qanday va nima uchun dunyoga keldik, nima uchun yashayapmiz, qanday va nimaga intilishimiz lozim" M. Behbudiy deb yozgan edi.

O'tmishda ham hozirda ham tarixni ijtimoiy foydali ekanligiga shubha bilan qaraydiga mumtoz fan vakillari bor. Misol uchun Gegel, Kitsshe, Volter, Dekart, Jan Jak Russo va boshqalarni aytilish mumkin. Ilgari ham jamiyatda tarixni o'rni va roli to'g'risidagi fikrlarda birdamlik yo'q edi, kecha va hozirgi kunda ham bu holat o'zgargani yo'q. Chunki tarixga fan sifatida qarashda, tarixiy taraqqiyot, tarixiy jarayon, tarixiy progress, tarix qonuniyatlari tushunchalariga turlicha bir-biriga zid qarashlar mavjud. Shu sababli tarixga o'ziga xos ijtimoiy-madaniy noyob hodisa deb qarash lozim.

Yurtboshimiz "Har qaysi xalq mlliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi¹" - deb ta'kidlagan edi.

- Demak tarixiy bilim doimo jamiyatni o'zligini anglashini, faqat tarixiy istiqbolda tushunishi mumkin. Shaxs, induvid ongida fuqarolik his-tuyg'usi uyg'onishi uchun tabiiyki o'z ildizini uzluksiz izlash bilan doimo mashg'ul bo'ladi.
- Tarixiy taraqqiyot, tarixiy jarayon, tarixiy voqelik, hodisani bilish yoki ularni mohiyat-mazmunini chuqur anglash shaxs va jamiyat kamolotida tub siljishlarni yuz berishini zaruriy omili bo'lib xizmat qiladi.
- O'zlikni anglash insonning kamol topishidagi muhim jarayon bo'lib, shaxs o'z xalqini o'tmish tarixi, madaniyatini noyob namunalarini o'rganib ma'lum bir tushuncha hosil qiladi, o'z bilimini oshiradi, dunyoqarashini hosil qiladi. Bu o'z navbatida uni o'zligini anglashiga olib keladi. o'zligini anglagan inson har tomonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchi teran anglab yetgan bo'ladi.
- Tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllanishi asosida o'quvchilarda milliy o'zlikni uchun tarix darslarini o'qitishning sifati muhim o'rin tutadi. Shu sababli

¹ I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" "Ma'naviyat" 2008, 97-bet

mazmun-mohiyati chuqur bo'lgan tarix darsliklari, o'quv qo'llanmalarini yaratish va ulardan foydalanish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Tarixiy o'tmish insoniyat jamiyati paydo bo'lgan vaqtdan o'rganilgani ma'lum. U turli sinfiy, tarixiy, falsafiy diniy va madaniyat nuqtai-nazaridan o'rganiladi. Tarixiy bilimga bo'lgan ijtimoiy tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj ham bo'g'langan. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy "xotirasi" o'tmish to'g'risidagi bilim sifatida chiqib, ko'pgina ijtimoiy ahamiyati yurish-turish namunalarini beradi. Tarixiy shaxslarning faoliyatlari, turli tarixiy vaziyatlar, ma'lum bir ziddiyatlarni yechish usullari ushbu etnosning ijtimoiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.
- Xulosa qilib aytganda o'zligini, tarixini bilmagan inson yoki o'sha yurt farzandi men shu yurt farzandi deya olmaydi. O'zlikni anglamagan bunday insonlar o'z manfaati yo'lida har qanday ishga tayyor inson bo'lib yetishishi yoki ma'naviy yuksalmagan, o'z fikriga ega bo'lmagan, o'zini hamda o'z yurtini qadr-qimmatini bilmaydigan kishi bo'lib chiqishi mumkin.
- Demak, tarixiy ong milliy o'zlikni anglashni tarkibiy unsuri bo'ladi. O'zligini anglagan inson eng avvalo o'z xalqi – millati tarixini bilgan holda tarixiy ong, tarixiy xotiraga ega bo'ladi, buyuk bobomiz Amir Temur aytganlaridek o'zining ongli faoliyati bilan millatning dardiga darmon bo'ladi.

2.2. Tarixiy ong va milliy o'zlikni anglash mushtarakligi

Taniqli olim Ziyo Ko'kalp "Haqiqiy jamiyatgina millatdir" deb aytgan edi. Demak o'zligini anglagan jamiyat bu tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida turli ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy bo'xtonlar sharoitida o'zini saqlab qola olgan, bu bo'xronlarni boshidan keschirishga bardosh bergan va undada yanada kuchli bo'lib chiqa olgan millatni aytish mumkin. Bu ziddiyatli va doimo bo'xtonlar takrorlanib turadigan tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq-millat o'zini qanday saqlab qolishi va undanda kuchli bo'lishi mumkin? Bunday kuchni millat qayerdan oladi? Shu o'rinda Prezidentimizning "Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi"¹ degan so'zlarini e'tirof etamiz. Bizning fikrimizcha o'zlikni anglashning mukammalligi yoki zaifligi u yoki bu millatning, u yoki bu ijtimoiy etnik birlikning tarixiy ongi, xotirasini qay darajada rivojlanganiga bog'liq bo'ladi. Tarixiy xotita va tarixiy ong ijtimoiy etnik birlikning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni bilan hamohang rivojlanib boradi. Etnik birlik o'z taraqqiyoti jarayonida qandaydir ijobiy natijalarga erishadi. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini shunga mos ravishda tashkil qiladi. Nafaqat ijtimoiy taraqqiyot uning hayot kechirish darajasini balki ma'naviy hayotini ham belgilab beradi. O'z manfaat extiyojlarini moddiy jihatdan qondirgan etnos ma'naviy hayotini ham shu asosda quradi. O'z o'tmishini sarhisob qilgan holda kelajagini belgilaydi. Boshqalar oldida o'z mavqeini asoslash va uni mustahkamlash uchun o'z qadriyatlarini himoya qiladi. Anashu himoya qilish vositasi uning o'tmish tarixini muhim jihatlarini belgilaydigan tushuncha uni tarixiy ongi va xotirasi bo'ladi. Bu kategoriyalar etnosning boshqalar qatorida teng huquqli bo'lish mavqeini tarixan asoslash demakdir. Muqim bir hududda yashab turgan etnos bu joyni o'zini kindik qoni to'kilgan vatani, yurti deb hisoblab, o'zini moddiy va ma'naviy hayoti, turmushi kechadigan joy deb hisoblab, uni ardoqlab, avaylab asraydi. Va bu hududni kelajak avlodlariga qoldirish huquqiga egaligini ma'naviy asoslaydi va ramziy shaklda (yozuv) belgilaydi. Bu yozuvlar rasmiy – huquqiy hujjat tarzida bo'lishi yoki

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 140-b

tarixiy voqea, hodisa bayoni sifatida bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda tarixiy ong tarixiy xotira shu tarzda shakllanib millatni o'zligini bilish tuyg'usini keltirib chiqaradi. Bu holni biz shunday tasvirlaymiz: tarixiy ong, tarixiy xotira etnos va milliy o'zlik- jamiyat.

Demak, u yoki bu xalq o'z tarixiy ongi, tarixiy xotirasini uzluksiz rivojlantirib borishi va uni etnos vakillari individlar ongiga singdirishi natijasida ushbu etnos o'z ongida milliy o'zligituyg'usini hosil qiladi. Bu uzliksiz jarayon etnos vakili bo'lgan individ dunyoqarashida alohida his tuyg'u-or-nomus, o'z xalqiga nisbatan hurmat, iftixor va oxir oqibatda millat miqyosida milliy iftixorni shakllantiradi. Milliy iftixor, g'urur xalqni o'z manfaat va extiyojlarini qondirishda, boshqa xalqlar oldida o'z manfaatlarini himoya qilishga mustahkam kuchni hosil qiladi. Bundan tashqari ziddiyatli dunyoda o'z mavqeini saqlab qolish uchun millatni jipslashtiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda Prezidentimizning quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: "To'g'i, Movarounnaxr sarhadlariga uzoq tariximiz davomida ne-ne boskinchilar kirib kelmagan, ko'p yillar, balki, asrlar davomida yurtimizda ne-ne o'zga sulolalar hukmronlik qilmagan, deysiz. Bir so'z bilan aytganda, ming yillar davomida yurtimizga kelib-ketganlar ozmi? Erondan Axmoniylar, Yunonistondan Aleksandr keldi, Arabistondan Kutayba, Mug'ulistondan Chingizxon keldi, rus istilochilari keldi. Lekin xalk, qoldiku. Xo'sh, bunda kanday sir-sinoat bor? Xalq kanday ichki kuch-kudratga tayanib o'zligini saqlab qoldi? Qadim-qadim zamonlardan o'troq yashagani, ilm-ma'rifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo'lgani, o'z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun emasmi?"¹ bundan kelib chiqadiki, millat o'z hududini g'animlardan himoya qilishda o'zining shu hududda muqim yashab turganligi uni ilgari ham dushmanlardan himoya qilgani uning tarixiy ongi va xotirasida saqlab qolganligi uni ma'naviy jihatdan kuch bilan ta'minlaydi. Bizning fikrimizcha tarixiy ong va tarixiy xotira Prezidentimiz aytganidek ajdodlarimiz o'tmishda yaratgan buyuk madaniyatning, muqaddas urf-odatlarni aks etishining bir unsuridir.

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 143-b

Shuningdek hozirgi kunda globallashtirish, integratsiya jarayonlarining dunyoni barcha hududlarini jumladan bizni mamlakatimizni ham jadal qamrab olishi, xalqaro, mamlakatlararo ziddiyatlarning keskinlashuvi mamlakatimizni hududimizni yaxlitligiga tahdid solmoqda. G'animlar g'arazli niyatlarda o'tmish tarixni soxtalashtirishga urinmoqdalar. Tarix fani millat va jamiyatni bunday tahdidlardan himoya qilishi, xalqimizni tarixiy ongi va tarixiy xotirasini mustahkamlashi lozim. Bunday vaziyatda Prezidentimiz so'zi bilan aytganda "Har bir xalq o'z tarixini har xil ta'sir va tajovuzlardan asrash kerak".¹

Tarixiy ong, tarixiy xotira etnosni jipslashtiradigan milliy o'zligini anglashga xizmat qiladi. Milliy o'zligini anglash tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyatidir. Milliy o'zligini anglash tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va manaviy merosidan g'ururlanishdir. Millatga mansublik o'ta nozik va ayni paytda juda murakkab holat. Kishi zarur bo'lganda hayotidagi jamiki ne'matlardan hech og'rinmasdan voz kechish mumkin. Biroq hech kim, hech qachon milliy mansubligidan tonolmaydi. Uni xohlagan paytida xohlagan o'zgartira olmaydi.

Millatga mansublik xislari insonning qon-qoniga, ming bir hijrasiga singib ketadi. Buni anglamaganlar g'arib va bechoradir.

Milliy o'zligini anglash tuyg'usining yana bir jihati shundaki, u shaxsning eng avvalo qaysidir millatga mansubligi, uning keng imkoniyatlaridan quvona olish fazilatigina emas, balki yashab turgan zaminga, fuqaroligi daxldor bo'lgan mamlakatga munosabat belgisi hamdir.

Milliy o'zlikni anglashda tarixiy xotirani uning tarkibini tashkil etuvchi asosiy unsur deb qat'iy belgilash mumkin:

Birinchidan- har bir individ tabiiy ijtimoiy mavjudot sifatida o'zligini anglashga harakat qiladi. U jamiyatda yashaydi, bilim va hayotiy ko'nikma - malakaga hayot jarayonida ega bo'ladi va shu asosda ma'luin bir dunyoqarashi shakllanadi. Uning bilimi qiziqishlari doirasi, uning ongini darajasini belgilab ijtimoiy ong shakllarini qaysidir birini ijtimoiy ong shakllarini qaysidir birini

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 152-b

boshqalaridan ko'ra yuqoriroq darajasini egallashga sabab bo'iadi. Qaysi ijtimoiy ong shakli uning dunyoqarashida ustuvor ahamiyat kasb etadi?

Ikkinchidan, individdni ta'lim tarbiyasi uni dunyoqarashini shaklanishida muhim o'rin tutadi. Shaxs barkamolligini manbai nazariy va amaliy jihatdan olingan bilim tajribadir. Tarixiy ong boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farq qilgan holda o'ziga tortadigan jozibaga va ko'rinishga ega. Tarixiy ongning unsurlari mifologiyada, turli turdagi yozma manba va adabiyotlarda san'at asarlarida uchraydi. Shu sababli ta'lim jarayonida turli ijtimoiy gumanitar fanlarni o'rganish, san'at madaniyat to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, undan bahramand bo'lish shaxsda o'z navbatida tarixiy ongni shaklanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan tarixiy xotira shaxs ongida railliy his tuyg'uni uyg'onishiga asosiy vazifani o'taydi. Bu jarayonni ishtirokchilaridan eng faoli bu kino va teatr sarr atidir. San'atning bu janrlari inson ruhiyati va his tuyg'usida bevosita ta'sir qiladi va ularni to'lqinlantiradi. Bu omillarni to'ldiradigan va shaxs tarixiy ongini o'sishiga sabab bo'ladigan unsurlardan biri bu madaniy tarixiy memoriy yodgorliklardir. Bu madaniy yodgorliklar bilan tanishish, ular to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish shaxs tarixiy ongini yanada yuksak darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bularning barchasi milliy o'zlikni anglashni keltirib chiqaradi, uning ko'rinishi milliy g'urur, iftixor, vatanga muhabbat tuyg'usini namoyon bo'lishida ko'rinadi. Bu prezidentimiz iborasi bilan aytganda har bir fuqaroni o'z manfaati-ehtiyoji bilan hamohang vatan, el-yurt manfaati yo'lida faol harakatini. "Elim deb yurtim deb yonib yashashni" hayotiy zaruriyat qilib qo'yadi.

Aytish mumkinki, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi va uni e'zozlashga intilish ma'naviy ehtiyoj mahsulidir. Bu ma'lum darajada faqat tarixiy ongga ega bo'lgan shaxsga tegishli bo'ladi.

Milliy o'zligini anglash tuzilmasi juda murakkab va har xil darajaga ega. Uning birlamchi va asosiy unsurini ma'lum bir etnosga mansublik tashkil etadi. Etnik qarashlar, odatlar, ko'nikma, o'zini tutish normalari kabi kundalik ongning tarkibiy unsurlari tor ma'noda milliy o'zlikni anglashni bildiradi. Milliy o'zlikni anglash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Etnik birlik ongi va boshqa millatga munosabati;
2. Milliy qadriyatlarga sodiqlik;
3. Ijtimoiy davlatchilik birligi;
4. Vatanparvarlik;
5. Milliy jipslashuv.

- o'z jamiyat, xalq manfaatlarini o'z manfaatidan doimo ustun qo'yishda
- Jamiyat, davlat, mamlakat oldida o'z mas'uliyat, burchini doimo his qilish
- o'z millati ma'naviy-rnadaniy yodgorliklari, tarixiy merosini asrash-avaylash
- o'z milliy urf -odat, an'analariga sodiq qolish, ularni asrash hamda saqlash, ularni hayotiyiligini ta'minlash

N. Berdvaevning quyidagi iborasini inkor qilish mumkin emas. Bu kosmopolitizmni e'tirof etadigan ayrim individlarni shaxs sifatida o'zini anglay olmagan, dunyoqarashi manaviy jihatdan qashshoq va o'zi. cilasi, avlodini, kelajagini yo'qotishdek fojeani anglab yetmagan xudbin qiyofasini tasavvur qilishga yordam beradi. Individdagi bu holat uni milliy o'zligini anglab yetmagan sababi tarixiy ongni shakllanroaganidir. R. Rahmonov, F. Fayziyevlarning "Milliy ong zaminida birinchi navbatda, muayyan etnik birlikka mansublikni anglash yotadi. Bu milliy o'zlikni anglashning asosidir¹" so'zlarini biz shunday davom ettirishni lozim topdik. Malum bir millatga raansub bolgan kishida past yoki yuqori darajada bolishi mumkin. Shu bilan birga shu millatga genetik jihatdan mansub bolmay. Ushbu millatni o'z millati deb bilish va uni milliy ongini qabui oilish mumkln, Bu ushbu millat ichida yashab uni urf-odati, an'analarini, tili, madaniyati, ijtimoiy psixologiyaslari qabul qilish natijasida yuz beradi. Ushbu holatda millat manfaat ehtiyojlarini his qilish,, uni qabul qilish bilan tavsiflanadi. Milliy o'zligini anglashri jamiyat miqyosida, yaxlit millatda yuksakligi belgisini quyidagi belgilarga asoslanadi deb hisoblaymiz.

¹ R. Raxmonov, F.Fayziyev. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira.

"O'zini xalqini bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi"¹ Prezidentimizning bu so'zlarida shunday ma'noni uqish mumkin: individ ma'lum darajada o'z xalqini o'tmishi, buguni, kelajagi to'g'risida tushunchaga ega bo'lib o'zini shu xalqning farzandi, o'tmish ajdodlarning davomchisi hamda bu xalq uchun o'zini mas'ulligini his qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'zligini anglashning rivojlanishi jarayonida. tarixiy ong o'z o'rniga ega. Yuqorida aytilganidek, tarixiy ong millatni o'zligini anglashini asoslovchi bosh omillardan biri, Har bir xalq, miliat "biz kim?" degan savolga javob topishga harakat qilgan va o'z tarixiy ongi, tarixiy bilimi va fani taraqqiyoti darajasida bu muammoni hal qilishga harakat qilgan.

Tarixiy ong millatning o'zligini anglashida muhim o'rin tutadigan avlod - ajdodlardan kelajak avlodga o'tadigan xotira vazifasini bajarib keladi. Xotira-millatning o'tmishi to'g'risida uzuq-yuluq ma'lumotlar bilan bir qatorda izchil ma'lumotlarni ham to'playdi.

Fikrimizning dalili sifatida biz turkiy xalqlar, o'zbek millati genezisi to'g'risidagi bilimlarning shakllanishi jarayomni ko'zdan kechiraylik. Dastlab Markaziy Osiyoda er. avv. II-I ming yillikda yashagan oabilalar to'g'risida xalq og'zaki ijodiyoti, diniy tasavvurlar va etnografik ma'lumotlar tahlil qilingan, X-XI asr adabiy -tarixiy asarlarida (Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib, Bayhokiy) "Turkiston" so'zi keng qo'llanilgan. XVIII-XIX asrlarda esa Turkiston so'zi ijtimoiy -siyosiy va adafryot tanlarida markaziy o'rin tutadi.

XVI asrdan boshlab tarixiy adabiyotda turkiy xalqlarning kelib chiqishi, uning siyosiy tarixi to'g'risida mushohada qilina boshlandi (Abdulg'ozixonning "Shajarai turk" asari).

Biz tarixiy ongning turkiy xalqlarda rivojlariishi bosqichlarini diqqat bilan ko'zdan kechirganimizda, ularning etnos. millat sifatida shakllanish jarayoni tarixiy bilimlarda muntazam ravishda gavdalantirib borilganini ko'ramiz. Bu jarayon XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidchilik harakatining buyuk

¹ I.Karimov "o'zbekiston buyuk kelajak sari" T. 1998-y. 61-bet.

namoyandalari qalamiga mansub qator tarixiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Bu namoyondalardan biri Abdulla Avloniy sof turkiy ona tilimiz haqida quyidagicha kuyinib gapirgan edi: "Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamoq bir tarafda tursin, kundan-kun unutmoq va yo'qotmoqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy-forsiy ulangan, ilmoq qilib bir chetiga rus tilini ham yopishtirmoqdadurmiz... Bobolarimizga yetishgan va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak, axtarsak yo'qotganlarni toparmiz. "Yo'qolsa, yo'qolsin, o'z boshimga tor edi", deb Yevropa qalpog'ini kiyib kulgi bo'lmoq zo'r ayb va oriyatdir"¹. Alloma mustamlakachilik davrida rus mustamlakachilik ma'muriyatini har qanday yo'llar bilan xalqimizni tarixiy ongi, tarixiy xotirasini yo'qotishga urinishlarini ushbu so'zlarida yaqqol ifodalaydi.

XX asr boshlarida jadid namoyandalari turkiy xalqlarning boy tarixiy o'trnishini tahlil qilgan holda, mustaqil davlat tuzish mumkinligini, bu uchun siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifat yetuklik mavjudligi g'oyasini ilgari surdilar. Ammo dastlab podsho Rossiyasi, keyin bolsheviklar bunga yo'l bermadilar. o'tmish sovet davrini tahlil va mushohada qilsa totalkar tuzum puxta ishlangan reja asosida ma'lum maqsadni ko'zlagan holda o'zbek xalqining milliy - tarixiy ongidan uning shavkatli o'tmishi, buyuk davlatchilik an'alarini, qadimiy boy madaniyatini millat xotirasidan o'chirish kabi g'arazli maqsadni amalga oshirganini guvohi bo'lamiz, Bu millatning tarixiy xotirasidan uning tarixining shonli sahifalarini, davlatchilik an'analari, milliy ozodlik qahramonlari, buyuk daviat arboblari va ma'naviyat allomalarning faoliyatini unutishga olib keldi. Va bu hol ongning sayozlashuvi, turg'unlik holatini keltirib chiqardi.

Bu haqda Prezidentimiz I. Karimov shunday degan edi: "Bugun asrlar davomida ezilgan, kamsitilgan, shani va g'ururi yerga toptalgan el-yurtimizning ezgu niyatlariga erishdik-mustaqil davlat qurmoqdamiz. Davlatimizning qanchalik tez ulg'ayishi, kuch-quvvat ato etishl. dunyo hamjamiyatimizda o'ziga munosib o'rin egallashi, avvalombor, xalqimizning ma'naviy saviyasi; g'ururi va faxri nechog'lik yuksak bo'lishiga bog'liqdir. Ana shularni inobatga olgan holda yangi

¹ A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.

iamiyat barpo etmoqchi bo'lib eng asosiysi yo'nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasini qo'ydik.¹”

Milliy o'zlikni anglagan kishi eng avvalo o'z millati o'tmishini yaxshi bilgan uni qadrlay oladigan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar va holatlarda boyitib boradigan komil insondir. Turli millatlar turli sharoitda o'ziga xos ruhiy va ma'naviy fel atvorga ega berilganligi sir emas. Shuning uchun ham turli mintaqada yashayotgan xalqlar turlicha yashash tarziga, bir-biriga o'xshamagan urf-odatlariga ega bo'lishgan.

Ma'lumki bizning milliy qadriyatlarimizning juda ko'p qismi islom an'analari bilan yo'g'rilgan. Sovetlar davridagi dinga salbiy munosabat, diniy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan ramziy an'alarimizga ham rivojlanishida g'ov bo'ldi.

Faqatgina, mustaqillik yaratgan keng imkoniyatlar tufayli ming yillar mobaynida xalqimiz ongiga o'rnashgan, turmush tarziga aylangan, butun aqidalariga, ruhiy va ma'naviy kechinmalariga jo bo'lgan islom diniga munosabat keskin o'zgardi. Jumladan, 70 yil mobaynida xurofot, bidat deb atalgan islom dini ma'rifatparvar va yuksak ma'naviyatga yetaklovchi qudratli g'oya ekanligi e'tirof etildi. Komillikka da'vat etuvchi ulug' ajdodlarimiz nomi tiklandi. Jumladan, Imom Buxoriy, Abu Iso At-Termiziy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Baxouddin Naqshband, Xoja Ahror va boshqa o'nlab allomalarning ilmiy meroslari: qayta tiklandi. Sovet davrida asrlar mobaynida tildan tilga ko'chib, avlodlar davomiyligi va vorisiyligi saqlashda oltin xalqa bo'lgan afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, topishmoqlar va latifalar zo'ravonlik bilan yo'q qilindi. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Hasanxon", "Nuralixon", "Sheralixon" kabi dostonlar, milliy qo'shiq va laparlar g'oyaviy nuqtai nazardan zararli deb topilgan edi." "Alpomish" dostoni alohida muhokama qilindi, Go'yoki unda xonlar va beklar shaniga xamdu sanolar o'qilarmish, bosqinchilik va zo'ravonlik tashviq qilinar emish, diniy ohanglar, ilohiy kuchga ishonish, ilohiyatning mavjudligi kabi g'oyalar targ'ib qilinar

¹ I.A.Karimov "Xalqimizning otashqalb farzandi" T. 1992-y. 4-bet

emish"¹. Totalitar tuzumda dostonning ana shu jihatlariga yopishib olib, uni dahriylik tashviqot quroliga aylantirmoqchi bo'lishdi. Mazkur mafkuraning ana shu qabih g'oyasi tufayli inson qalbidagi ishonch, e'tiqod tuyg'usi maxv etildi. Xudo bexabarlik iymonsizlik va diyonatsizlikni keltirib chiqardi. Natijada na Vatanga, na millatga, na o'tmish va istiqbolga e'tiqod qoldi.

Vaholanki, o'zbek dostonlarning ko'pchiligi xalqning tarixiy o'tmishini aks ettiradi. Asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan dostonlardagi tarixiy dalillar xalqning ijodiy xayolidan o'tib umumlashtirilgan. "Alpomish" dostonini olib qaravdigan bo'lsak "uning g'oyaviy mazmunini yarim ko'chmanchi o'zbek elatlarining ilk feodalizm davrida ijtimoiy va oilaviy-maishiy ukladida patriarxal-feodal munosabatlar hukmronlik qilgan bir vaqtda shakllangan turmush xususiyatlari belgilab bergan"². Ushbu dostonlar millatimizni o'zligini anglashini mifologiyada tarixiy ong, tarixiy xotira bilan birgalikda shakllanishini o'rta asrlardagi holatini tavsiflaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasi hamma vaqt milliy o'zlikni anglash tushunchasi bilan mushtarak bo'ladi.

- Demak tarixiy ong, tarixiy xotira milliy o'zlikni anglash tushunchasini tarkibiy unsurlaridan biri bo'lib keladi. Qaysiki u milliy o'zlikni anglashdan oldin keladi va unga poydevor bo'lib xizmat qiladi.
- Milliy o'zlikni anglash tushunchasini tahlil qilganda shu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshiradigan tadqiqotchi tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasini tarixiy, falsafiy nuqtai nazardan ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
- Milliy o'zlikni anglash tushunchasini ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilganda albatta uni unsurlarini tarixiy madaniy yo'nalishda tushuntirish zaruriyati bor. Chunki milliy o'zlikni anglash jarayon sifatida ma'lum bir etnosni butun bir uzliksiz tarixi davomida qandaydir darajada sekin yoki jadal amalga oshadi. Bu holni tadqiqotchi hisobga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Ibrohimov, A. va boshqalar. "Vatan tuyg'usi" T. 1996 y. 294-bet.

² Jabborov I. "O'zbek xalq etnografiyasi" T. 1994 y. 274-275 betlar

- Demak, o'zlikni anglashning mukammalligi yoki zaifligi u yoki bu millatning, u yoki bu ijtimoiy etnik birlikning tarixiy ongi, xotirasini qay darajada rivojlanganiga bog'liq bo'ladi. Tarixiy xotira va tarixiy ong ijtimoiy etnik birlikning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni bilan hamohang rivojlanib boradi.
- Xulosa qilish mumkinki, o'z manfaat ehtiyojlarini moddiy jihatdan qondirgan etnos ma'naviy hayotini ham shu asosda quradi. O'z o'tmishini sarhisob qilgan holda kelajagini belgilaydi. Boshqalar oldida o'z mavqeini asoslash va uni mustahkamlash uchun o'z qadriyatlarini himoya qiladi. Anashu himoya qilish vositasi uning o'tmish tarixini muhim jihatlarini belgilaydigan tushuncha uni tarixiy ongi va xotirasi bo'ladi.
- Tarixiy ong, tarixiy xotirani tarkibida singdirgan milliy o'zlikni anglash darajasiga ega bo'lgan etnosning boshqalar qatorida teng huquqli bo'lish mavqeini tarixan asoslash demakdir. Muqim bir hududda yashab turgan etnos bu joyni, o'zini kindik qoni to'kilgan vatani, yurti deb hisoblab, o'zini moddiy va ma'naviy hayoti, turmushi kechadigan joy deb hisoblab, uni ardoqlab, avaylab asraydi. Va bu hududni kelajak avlodlariga qoldirish huquqiga egaligini ma'naviy asoslaydi va ramziy shakl (yozuv)da belgilaydi. Bu yozuvlar rasmiy – huquqiy hujjat tarzida bo'lishi yoki tarixiy voqea, hodisa bayoni sifatida bo'lishi mumkin.
- Tarixiy ong, tarixiy xotira shu tarzda shakllanib millatni o'zligini bilish tuyg'usini keltirib chiqaradi. Bu holni biz shunday tasvirlaymiz: **tarixiy ong, tarixiy xotira —→ etnos —→ va milliy o'zlik —→ jamiyat.**
- Demak u yoki bu xalq o'z tarixiy ongi, tarixiy xotirasini uzluksiz rivojlantirib borishi va uni etnos vakillari individlar ongiga singdirishi natijasida ushbu etnos o'z ongida milliy o'zligituyg'usini hosil qiladi. Bu uzliksiz jarayon etnos vakili bo'lgan individ dunyoqarashida alohida his tuyg'u-or-nomus, o'z xalqiga nisbatan hurmat, iftixor va oxir oqibatda millat miqyosida milliy iftixorni shakllantiradi. Milliy iftixor, g'urur xalqni o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishda, boshqa xalqlar oldida o'z manfaatlarini himoya qilishga mustahkam kuchni hosil qiladi. Bundan tashqari ziddiyatli dunyoda o'z mavqeini saqlab qolish uchun millatni jipslashtiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

2. 3. Mustaqillik davrida tarixiy ong va milliy o'zlikni anglashda yangi bosqich

SSSR parchalanib ketishi natijasida mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishi millatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar, shart-sharoitlarni yaratdi. Bungacha jamiyat uzoq tarixiy davr o'ziga xos ijtimoiy karaxtlik holatida bo'lib, tarixiy ong markscha dunyoqarash asirligida qoldi. Bu davrda milliy, tarixiy ong, o'z-o'zini anglash o'rnini kommunistik g'oya egalladi. Shu sabab endilikda eski tuzumni takomillashtirish yoki rekonstruksiya qilish emas, balki eski jamiyatni buzib tashlash, milliy va ma'naviy qadriyatlarni anglay oladigan, ularga keng yo'l ochadigan jamiyat qurish millat uchun amaliy va ob'yektiv ehtiyoj bo'lib qoldi. Shuning uchun ham "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"¹.

O'zbekiston uchun eski tuzumning o'rniga yangi demokratik huquqiy jamiyatni shakllantirish niubim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatni bu yo'nalishda rivojlanishining ikki qudratli omili-davlat mustaqilligi va milliy o'zlikni anglash jamiyatimiz taraqqiyotini rivojlantirishning asosiy tayanchidir. Prezidentimiz Islom Karimov Oliy majlis XI sessiyasida shunday degan edi: "Mustaqillik iqtisodiyotni, ijtimoiy sohalarni, jamiyat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, isloh qilishga katta turtki berdi. Faqatgina istiqlolning hayotbaxsh zaminida yangi demokratik qadriyatlar ildiz otishiga, inson haq-huquqlari va uning erki asosiy boyligi bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga mos keladigan yangi zamonaviy, siyosiy, xo'jalik va jamoa tuzilma qaror topishiga imkon berdi. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umum e'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatlarga ega boldik"².

Kommunistik mafkura tarixiy ong tarixiy xotirani rivojlanish shart-sharoitlari, imkoniyatlarini yo'q qilish yo'lini tutdi. Millat tarixi o'rganilmadi,

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" T. 1997 y. 337-bet

² Shu kitobdan.

xalqimiz tarixini juda ko'p yozma manbalari xalqdan yashirildi, ularni o'rganish o'tmish "feodal jamiyatni qo'msash" aybi bilan ta'qiqlab qo'yildi. Bundan tashqari bu manbalarni o'rganish uchun qulay omil bo'lgan arab alifbosiga asoslangan yozuv o'rniga kiril alifbosi joriy qilindi. Ta'lim tizimida Vatan tarixini o'rganish o'rniga buyuk davlatchilik ruhidagi tarix fani o'qitildi. Millatlarni milliy-ma'naviy ruhini sindirish maqsadida millat o'rniga sovet xalqi ijtimoiy birligi degan tushuncha kiritildi. Madaniyat shaklan milliy mazmunan sotsialistik ruhda rivojlanishi shiori olg'a surildi. Natijada millatimizning tarixiy ongi va tarixiy xotirasini tizimli istiqbolli rivojlanishi uchun juda katta ma'naviy zarba berildi. XX-asr boshlarida jadid namoyondalari tomonidan tarixiy ong tarixiy xotirani tiklash uchun amalga oshirilgan ishlar 1917 yil oktabr voqealaridan so'ng to'xtab qoldi. Ular xalqimizni tarixiy ongini o'stirish ushun tariximizni xolisona o'rganish vazifasini amalga oshirishni boshlagan edilar. A. Fitrat, A. Alvoni, Tavollo, M. Shermuhammedov, Sh. Rahimiy, Yevishev, M. Behbudiy va boshqalar. Turkiston xalqlari tarixi madaniyati va istiqboli haqida ko'plab risolalar maqolalar va boshqa asarlarni yaratdilar. Bu asarlarda millatni tarixiy ongi, tarixiy xotirasini jonlantirish va u asosida milliy o'zlikni anglash muammosini hal qilish bilan millatni ozodligini amalga oshirishni ko'zlagan edilar. A. Fitrat, M. Behbudiy va boshqalar xalqni tarixiy ongini rivojlantirish naqadar muhimligini his qilgan holda o'z asarlarini mazmun mohiyatiga shu tushunchani singdirdilar. A. Fitratning "Sharq masalasi" risolasi, "Abulfayzxon fojeasi" dramasi, "Vayron bo'lgan qabrlar" she'riy asari kabilardir. Ilgari surilgan g'oyalarda tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchalari bilan yo'g'rilgan edi.

Milliy o'zligini anglashni zaifligi millat manfaatlariga yot g'oyalarni ularni o'rniga ustuvor bo'lib qolishi oqibati bo'ldi. Buning sababi shuki, faqat ma'lum bir tarixiy vaziyat va sharoitlardagina millat, xalq o'zining milliy g'ururi va sha'nini himoya qilish darajasigacha olib boradigan milliy tuyg'u uyg'onishi va harakatga kelishi mumkin.

“Xalqimizning ma'naviy poydevori bo'lajak davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat. Ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim”.

Davlat mustaqilligi va milliy o'zligini anglash kabi bunday dialektikaning mohiyati shundan iboratki, bu huquqiy asosda milliy mustaqil davlatchilikning o'rnatilishi, xalqning milliy ongini ko'tarish jarayonini intensivlashtirish qiladi va xalqning o'zligini anglashining ko'rinishi va ko'tarilishi jarayonini tezlashtirib kishilarni yagona tarixiy taqdir va an'anaviy yaxlitlik negizida birlashtiradi.

Milliy o'zligini anglash moddiy kuchga aylangan holdagina millat yaxlitligi va birligini ifodalaydigan ma'naviy to'lqin vujudga keladi. Tarixiy nuqtai nazardan O'zbekiston uchun bunday jarayonlar yangi emas edi. Qachonki Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyingi dastlabki yillarida o'zbek xalqining ijtimoiy etnik birlik sifatida o'z milliy davlatchiligini yaratish imkonini vujudga kelgan edi. Lekin totalitar tuzum har qanday milliy davlatchilik g'oyasiga zarba berib, sobiq SSSR miqyosida milliy taraqqiyotga imkon bermaydigan tartib-qoidani o'rnatdi. Milliy siyosatda butun ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotni baynalmillallashtirish yetakchi o'rin tutdi. Milliy tarixiy ong, milliy ma'naviyat ta'qib ostiga olindi. Bunday siyosatni oqlash uchun hech kim tomonidan asoslanmagach “qoloq xalqlar” degan ma'shum nazariya o'rta tashlanib, O'rta Osiyo xalqlari ibtidoiy-feodal munosabatlar chulg'amida qolgan xalqlar jumlasiga kiritilib, bu xalqlarni hozirgi zamon sivilizatsiyasi va madaniyatiga tomon harakat qildirishdek uydirma vazifa qo'yildi.

Tarixiy haqiqat, albatta, o'z real ko'rinishiga ega. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi O'zbekiston hududi urbanizatsiyalashmagan, rivojlanmagan infrastrukturaga ega bo'lgan ekan. Vaholanki bu hududda 1893 yilda shahar aholi 24 % ni tashkil atgan bo'lsa, bu ko'rsatkich shu davrda Rossiyada 18%ga teng bo'lgan.

Milliy o'zligini anglash, qayta yuksalish, milliy mustaqillik davlatchilikning mustahkam poydevorini yaratish-milliy tarixiy ongni tiklash orqali amalga oshirilishi mumkin. Tarixiy xotira va millatning tarixiy shonli o'tmishi har bir kishinmg ijtimoiy ongida milliy g'urur va milliy faxrni mustahkamlaydi, o'tmish ajdodlar qahramonona faoliyat oldida milliy tuyg'u kuchayadi.

O'zbekistonning mustaqil suveren davlat mavqeini olishi uning haqiqiy o'z tarixiga qaytish imkonini yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy, tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olga siljitishida hal qiluvchi, ta'biri joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga ega"¹ - degan so'zlari bu fikrning yaqqol dalilidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng millatimizni tarixiy ongini, tarixiy xotirasini tiklash va uning asosida o'zligini anglagan haqiqiy millatni shakllantirish uchun misli ko'rilmagan ishlar Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirildi. Bular sirasiga quyidagilar kiradi:

birinchidan: millatimizning davlatchilik tarixi, yoki siyosiy tarixi, madaniyat tarixi, ma'naviyat tarixini tiklash uchun o'tmish tariximizni xolisona o'rganish boshlandi. Prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari tarixchilarni bu yo'nalishda jadal tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun o'z vaqtida berilgan metodologik qo'llanma bo'ldi. O'tgan yigirma yil ichida tariximizni noyob yozma manbalari o'rganildi va ko'pchilik e'tiboriga havola qilindi. Xalqimizdan yashirilgan va unitib yuborilgan noyob tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarix fanini o'qitishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, eski umrini o'tab bo'kgan marksistik metodologiyadan voz kechildi. Yangi darslik va o'quv qo'llanmalari chop etilib tarix ta'limi tizimiga joriy qilindi, chop etilgan ushbu o'quv qo'llanmalari xolisiylik, tarixiylik tamoyillari asosida yaratildi. Shuningdek tarix fani mazmun mohiyati umumjahon miqyosida e'tirof etilgan tarixiy konsepsiyalar, ya'limotlar bilan boyitildi. O'tmish tarixni o'rganishda tarixiy haqiqatni izlash va uni yuzaga chiqarish tarixiy

¹ Sharq yulduzi. 1996 y. 1-son 3-9 betlar

tadqiqotlarning me'zoniga aylandi. Prezidentimizning tarixchi olimlarimiz bilan uchtashuvdagi aytgan quyidagi so'zlari hozir ham dolzarb bo'lib qolmoqda. "Tarix fani, uning bugungi ahvoli, istiqboli haqida gapirar ekanmiz, men yana bir masalaga e'tibor qaratishni istardim. Agar biz tarixchilarni taroziga solsak, bugungi kun nukta nazaridan baholasak, talabga javob beradiganlari juda kamchilikni tashkil etadi¹". Haqiqatdan ham keyingi ikki o'n yillikda taniqli tarixchi olimlarimiz B. Axmedov, A. Ziyov, A. Asqarov, Q. Rajabov, R. Shamsiddinov, M. Islomov, A. Xojayev va qator boshqa olimlar sayi-harakati bilan tarixiy haqiqatni yuzaga chiqaradigan juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tarixchi Q. Rajabov, E. Ochilov, Z. Ishoqova, G'. Boboyorov, A. Otaxojayev va boshqalarning "Tarix va taqdir" ruknidagi buyuk ajdodlarimizga bag'ishlangan tarixiy risolalari, R. Shamsiddinovning "Sovet davlatining qatag'on siyosati" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari va boshqa olimlarning ishlari e'tiborga molik². Ammo shu bilan birga hozirgi kunda ham o'tmish tariximizni yoritishda ayrim tadqiqotchilar qandaydir tor g'arazli manfaatlarni ko'zlab noxolisona yondoshuvlarga yo'l qo'yish hollari uchraydi. Bu hol haqiqatan ham bizni o'zligimizni anglashimiz saviyasi pastligi millatimizni ulug'vorliligiga putur yetkazadigan noqisliklardan xoli emasligimizni ko'rsatadi. Hozirgi kunda ham o'z umrini o'tab bo'lgan metod va metodologiyaga asoslangan adabiyotlardan foydalanish statistik ma'lumotlarni buzib ko'rsatish, ko'rinib turgan haqiqatdan ko'z yumish yuzaki asosiz xulosalar chiqarish va uni ilmiy haqiqat darajasiga ko'tarish hollari uchrab turadi.

Ikkinchidan: millatimizni tarixiy ongi va tarixiy xotirasini tiklaydigan va ular asosida milliy o'zligimizni anglashga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladigan, xalqimizni ma'naviy ruhiyatini yuksaltiradigan va barkamol insonni shakllantiradigan omillardan biri ma'naviy tarixiy obidalarining qayta tiklanishi bo'ldi. Prezidentimiz bu omillarga keng qamrovli mushohada bilan yondashgan holda ulkan ishlarni amalga oshirdi. Jumladan

¹ I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999. 7-jild. 151-bet

² Qarang. Q. Rajabov. Nasrullohxon. T.: "Abu matbuot-konsalt" 2011. R.T. Shamsiddinov. Istiqlol ushun kurash fidoiylari. Andijon.1993. R.T. Shamsiddinov. Jertvi reprecii. Andijon. 1994.

mamlakatimizning qadimgi shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Qarshi, G'ijduvon, Karmana, va boshqa joylardagi tarixiy obidalar to'la ta'mirlanib xalqimiz ixtiyoriga topshirildi. Qator qadimiy shaharlarni tashkil topganligini ming yilliklar yubileylari nishonlandi.

uchinchidan: o'tmishda mamlakatimiz madaniy, ma'naviy siyosiy taraqqiyotida hamda insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga o'zlarini ulkan hissalarini qo'shgan buyuk vatandoshlarimiz nomlari tiklanib ularning qabrlari ustiga mahobatli me'moriy inshootlar barpo qilinib ziyoratgohlarga aylantirildi, hamda ularning bebaho ma'naviy me'ros hisoblangan asarlari chop etilib ilmiy tadqiq qilina boshlandi. Jumladan: Toshkentda Amir Temur haykali o'rnatildi (1993 yil 31 avgust), sohibqironning 660 yillik tavalludi katta tantanalar bilan nishonlandi, Temuriylar muzeyi ochildi. Yunesko qarori bilan 1996 yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Parijda buyuk sarkardaga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. (1996 yil, aprel) shuningdek vatanimiz ozodligi kurashgan buyuk siymo Jaloliddin Manguberdi, olim va davlat arboblari Ulug'bek, Bobur tavalludlari keng nishonlanishi an'anaga aylandi.

At-Termiziy, Al-Buxoriy, Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoniy, Deggaroniy, Motrudiy, Muso al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Burxoniddin Marg'inoniy, Alisher Navoiy va boshqalar kabi olim, dinshunos, tasavvuf falsafasi namoyandalari tavalludlari nishonlanib, ularning ma'naviy meroslari keng o'rgaila boshlandi.

Respublika olimlari o'zbek millatining kelib chiqishi o'zbek davlatchiligi tarixi bo'yicha ko'p tomli ilmiy asarlar yaratishga, sovet davrida ta'qiqlangan olim, yozuvchi, shoirlar va boshqa O'rta osiyo mutafakkirlarining ilmiy-tarixiy merosini qayta o'rganishga kirishib, ualrning asarlari xalqqa tuhfa qilinmoqda.

to'rtinchidan: jahon sivilizatsiyasining noyob namunalari sirasiga kirgan xalqimizning boy ma'naviy me'rosi "Avesto" kitobining 2700 yilligi va "Alpomish" dostonining 1000 yilligi keng nishonlandi.

Stalin davrida qatag'on qilingan siyosiy-jamoatchilik arboblari, milliy ozodlik g'oyalari uchun kurashgan tarixiy shaxslar, aybsiz stalin davri qatag'on

qurboni bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasi tiklanib har bir viloyat, tuman markazida me'moriy yodg'orliklar o'rnatilib, xotira kitobi yaratildi. Har yili mamlakatimizda "9-may – xotira va qadrlash kuni" deb rasmiy e'lon qilinib ularga e'htirom ko'rsatish, xotirlash an'anaga aylandi.

"Mustaqillik poydevoriga xalqimizning boshiga tushgan og'ir kunlarda qatag'onga uchrab, gunohsiz qurbon bo'lgan minglab zabardast unutilmas farzandlari tamal toshlarini qo'ygan, shuning uchun mustabidlik zamonida xalqimizning xotirasidan ataylab o'chirilgan mo'tabar insonlarning nomlari birin-ketin tiklandi. Abdulla Qodiriy, Cbo'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosir kabi Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shaxid ketgan- o'nlab siymolarning ma'naviy merosi bugungi xalqimiz bisotiga qaytmoqda"¹. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinmg O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish" to'g'risidagi qarori chiqqaniga ham ancha bo'lib qoldi. Bu orada hukumat miqyosida ko'p xayrli ishlar qilindi. O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish bo'yicha Respublika ijtimoiy-ilmiy kengashi tavsiyasiga ko'ra uch ijodiy guruh kitobi bo'yicha faoliyat olib bordi. Jumladan dastlabki kitob mamlakatimizda chorizm istilosini (1850-1917 yillar) yoritisa, keyingi kitob Sho'rolar davrini (1917-1991 yillar) qalamga oladi. Va nihoyat uchinchi kitob zamonaviy mustaqil O'zbekiston tarixini qamrab oladi. Xullas O'zbekistonning yangi tarixi yaratildi. Bukilgan lekin sinmagan tarix qayta tiklanmoqda. Bu hayotbaxsh jarayonlar tarixiy ongni din odamzotni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz, diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta'limga doimo jiddiy e'tibor beriladi"² deb Prezidentimiz ta'kidlagan edi.

Jahon miqyosida e'tirof etilgan lekin sovet davrida o'rganish taqiqlangan diniy-falsafiy tafakkurning millatimizning o'tmishdagi daholari yaratgen nodir asarlari jumladan tasavvuf ta'limotiga oid noyob yodgorliklar atroflicha o'rganila boshlandi. Ular o'lmas qadriyatlar sifatida millatimizni qayta uyg'onishi hamda

¹ I. A. Karimov. "Xalqimizning otashqalb farzandi". T., 1992 yil.6-bet

² Mustaqil O'zbekiston tarixi. T. "Sharq". 2000 y. 406-bet

zamonaviy jamiyatda shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, uni bunyodkorlik faoliyatiga ma'naviy ozuqa berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning o'tgan yillarida tarixiy yodgorliklar bilan bir qatorda mamlakatimizning yaqin va uzoq hududlaridagi o'tmish sovet davrida qarovsiz tashlandiq bo'lib qolgan muqaddas qadamjolar, avliyo-anbiyolar, tasavvuf falsafasi namoyandalarini sog'ona-qabrlari qayta tiklandi, ta'mirlandi va gavjum ziyoratgohlarga aylandi. Birgina Zarafshon daryorsi va o'rta oqimi hududidagi tasavvuf falsafasi allomalari, mashhur hadisshunos muhaddis olimlar, kalomshunos olimlarni maqbaralari qayta tiklanib ta'mirlandi. (Baxouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, imom al-Buxoriy, Al-Moturidiy va boshqalarni maqbaralari). Bunday ulug'vor ishlar prezidentimiz I. Karimov rahbarligida amalga oshirildi bunday ulug'vor ishlar millatimizni ruhan tiklanishi, uni bunyodkorlik faoliyatiga kuch quvvat bag'ishladi. Eng muhimi xalqimizni tarixiy xotirasini tiklab, uni tarixiy ongini rivojlanishiga katta hissa bo'ldi. Xalqimizni tarixiy xotirasi dinyoqarashini yangi darajasini belgilaridan biri-milliy birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik tuyg'usini mustahkamladi Bu o'z navbatida bozor munosabatlariga o'tish davrida uni qiyinchiliklarga chidash, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda mustahkam irodani namoyon qilishga sabab bo'ldi.

Milliy o'zlikni anglash va tarixiy ong bir-birini taqozo qilib keladi. Tarixiy ong milliy o'zlikni unsuri sifatida inkor qilinganda u qashshoqlashib qolib, o'z jozibasini, ahamiyatini yo'qotadi. Inson o'z kelajak avlodini ta'lim-tarbiyasida milliy jihatlarga e'tibor bermasa bo'lg'usi avlodi vatansizlik dunyoqarashiga ega bo'ladi. O'z naslini davom ettirishda yot millat vakili bilan turmush qurganda milliy qiyofasini yo'qotishi o'z millatini unutishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari milliy manfaat ehtiyojlar, milliy g'oya, millatning g'am-tashvishlariga nisbatan loqaydlik, sovuqqonlik fuqaro yurish-turishida ustuvor o'rinni egallaydi. Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratli. "Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda iztirob chekadilar, chunki ularning manaviyat chashmasi go'yo uzoqlashib ketganidek bo'ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og'ir

qabul qiladi, chunki unda har bir qadrdon kishi uchun qayg'uradigan umumiy qalb bor"¹. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Xotirlashni bolalikdan individ ongiga singdirish, xalqni urf-odat, an'analari ruhida tarbiyalash, tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan tanishtirish, xalqni o'tmish tarixini yosh avlod ongiga singdirish - bularni hammasi tarixiy xotira - milliy o'zligini anglash bo'lsa kerak.

Milliy o'zlikni anglashga qaratilgan siyosat Prezidentimiz tomonidan Respublikamiz mustaqilligini birinchi kunlaridanoq boshlab olib borilgan quyidagi xususiyatlarga ega edi:

Mamlakatimizni nihoyat qullik zulmidan qutulib, o'zini, buguni, ertasi, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lganini millat ongiga yetkazish;

Uzoq vaqt qullik nishonlarida bo'lgan xalqni ruhiyatini ko'tarish, uni uzoq davom etgan uyqudan uyg'otish, unga hayotbaxsh, bunyodkorlik kuch-qudratini uyg'otish. Millatning shonli tarixiy o'tmishi va uni kuch-qudratini ramzi bo'lgan yaqin o'tmishda g'arazli maqsadlar bilan yo'q qilingan ma'naviy-madaniy boyliklarni qayta tiklash va uni bugun va kelajak uchun xizmat qoildirish;

Millatni ma'naviy kuch-qudratini tiklash, uzoq davom etgan qaramlik holatidan chiqarish:

Ma'naviy-madaniy merosni qayta tiklash orqali tarixiy xotirani qayta tiklash va uni har bir fuqaro ongiga singdirish. Tashqi siyosatda ichki ishlarda qilinayotgan ishlar O'zbekistonni tashqi dunyoda yaxshi ko'rsatish uchun emas, balki millatimiz yosh avlodni porloq kelajagi uchun qilinmoqda.

“O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”² prezidentimiz I. A. Karimovning bu so'zlari chuqur mazmunga ega. Haqiqatdan ham o'z o'tmish tarixini bilmagan fuqaroda milliy o'zligini anglash tushunchasi birligi to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tarixiy ong evolyutsiyasi yaqqol ko'rinadi. Ijtimoiy muhitni o'rganish jarayonida inson o'z-o'zini anglaydi, shunday sifatda o'z ijtimoiy hayotining xilma-xilligini, uning munosabat va aloqalarini har tomonlama anglashga harakat qiladi.

¹ Mustaqil O'zbekiston tarixi. T. “Sharq”. 2000 y. 406-bet

² I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: “O'zbekiston” 1999. 7-jild. 132-bet.

“Muayyan tarixiy davrda yashayotgan ayrim kishilar ongining rivojlanishi o'zining tarixiy hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog'liq bo'lib, ular bilan belgilanadi. Shuning uchun bilim doimo tarixiydir, hamma narsani bilish nisbiy, chunki u tarixiy sharoitga bog'liqdir. Lekin, bu tarixiynisbiy bilimda mutlaqiy haqiqat ko'rinishida umumiylik bordir”¹.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyat to'g'risidagi o'z bilimlarida faqatgina ob'yektiv xossa, voqea, yakka faoliyat va ijtimoiy jarayonlarni belgilab qolmasdan, balki o'zining jamiyatda tutgan mavqeiga ko'ra bu hodisalarga o'z baxosini beradi. Ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ong insonning tarixiy o'rnini isbotlashga urinadi.

Haqiqatdan ham inson o'z hayoti davomida o'zligini anglashga harakat qiladi, va "men", "biz", "kim" degan savollarga javob axtaradi. Insonning butun aqlan va jisman barkamol davri ana shu savolga javob topishga sarflanadi. "Inson boshqa mavjudotlardan farq qilib, ongga, o'z-o'zini anglash qobiliyatiga egadir. Shu tufayli ilmga intilish, o'z hayotining maqsad va mazmunini bilishga tirishish, go'zallik yaratishga, har tomonlama barkamol bo'lishga urinish barcha davr va millat kishilariga xos bo'lgan umuminsoniy, boqiy fazilatdir. Bu umuman inson mohiyatiga xos narsa bo'lib, u bu yorug' olamda nima uchun yashayotganligini anglashga, kelajagiga zamin hozirlashga intiladi”².

Har bir xalq, millat o'z-o'zim anglab yotgan taqdiridagina u haqiqiy millat bo'lishi mumkin. Turk mutafakkiri Ziyó Ko'kalp "qavmlar birdaniga millat holiga erishmaydilar, dastavval ijtimoiy hayotning odatdagi chaqaloqlik davrini o'z boshlaridan kechiradilar" deya o'sha qavmlarning millat bo'lib jipslashishi oson kechmasligini e'tirof etgan edi³.

Kishilarning ijtimoiy ongida ularning milliy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlari o'z aksini topadi. Milliy borliq ularning hayotini ajralmas qismini tashkil etib, ijtimoiy ongning milliy o'zligini anglash deb ataladigan ijtimoiy ong sohasining paydo bo'lishi, rivojlanishini tashkil etadi.

¹ Ibrohimov A va boshqalar. "Vatan tuyg'usi" T.1996 . 25 bet.

² Shermuhamedov S. "Davrimiz allomasi" T. 1998 y. 27-bet.

³ Ziyó Ko'kalp "Haqiqiy jamiyatgina millatdir". Dunyo ommabop majmuasi 1993 y. Nishona soni 16-bet.

Bizning fikrimizcha milliy o'zlikni anglash jarayoni murakkab va uzoq davom etadi. Odamlar insoniyatni bolalik davridan unsurlari paydo bo'lgan. Tarixchilarning fikricha tarixiy ongning shakllanishini quyidagi bosqichlarini ko'rish mumkin:

Birinchi bosqich. Ibtidoiy jamoa davri so'ngi paleolitdan jamiyat va davlat paydo bolishigacha. Bu davrda tarixiy ong, tarixiy xotira unsurlari mifologiya, xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etdi. Chunki yozuv hali shakllanmagani uchun o'tmishni ahamiyatli voqea hodisalari doston, afsona, ertak, rivoyat syujetlarida o'z aksini topdi. Baxshilar diniy marosim ijrochilari tomonidan ijro etilib keyingi avlodlarga qoldirildi yoki uzatildi.

Ikkinchi bosqich. Jamiyat va davlatni paydo bo'lishidan boshlanadi. Bu davrda (er. avv. 4 ming yillik-eramizning asrigacha) yozuv paydo bo'ldi. Bu inson tarixiy ongi, tarixiy xotirasini rivojlanishida tub burilish bo'ldi. Qachonki jamoa, ijtimoiy guruh, mamlakat, davlat ahamiyatga molik voqea-hodisalarni aniq bayon etishiga, kelajak avlodga nisbatan xolisona yetkazish mumkin bo'ldi. Tarixiy xotira, tarixiy ongni, miliy o'zligini anglash nimaga xizmat qiladi? Milliy o'zligini anglash millatning shakllanishi sharoitlarini va chuqur jarayonlarini aks ettirib, millatning ijtimoiy, jumladan xalqaro munosabatlarda egallaydigan ob'yektiv miliy manfaatlarini ifodalashga qaratilgan. Xo'sh bu qanday ehtiyoj? Albatta, bu milliy borliqqa kirish ehtiyoji, tarixiy bilimlardan o'zligini milliy jihatdan anglashda oladigan ma'naviy ozuqa sifatidagi ehtiyqlardir. Tarixiy shaxs, jamiyat, xalq-millatni o'zligini anglashi uchun ozuqa beradigan manaviy manbadir. Insoniyat jamiyati o'z taraqqiyoti jarayonida bu omildan foydalanib keladi.

Millat va mamlakat hayotida shunday o'zgarishlar va burilishlar bo'ladiki u goh ichki evolyutsion taraqqiyotning yuzaga qalqib chiqishi, goh ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar xosilasi, goh tarixan pishib yetilgan muammolarning yechimi tarzida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy maqsad, natija va xosilalarning boshi va oxirida xalq turadi. Xalq bu natijalarga vorislik qiladi, keyingi o'zgarish va istiqbol umrini belgilovchi maqsadlar asosida o'z hayotini qaytadan quradi. Ma'naviy an'analar,

milliy qadryatlar, ijtimoiy tajribalar millatning o'zligini anglash va tasdiqlash vositalaridir.

Prezident Karimovning "Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda" degan iborasidan, hozirda, shu kunlarda milliy qadryatlarni, milliy iftixorni, milliy o'zlikni anglashda tarixiy ongning vositachi sifatidagi roli naqadar muhimligini payqash mumkin. "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimizning hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'biri joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"¹.

Ma'lumki, zamonlardan-zamonlarga, ajdodlardan-ajdodlarga moddiy, madaniy, ma'rifiy- ma'naviy boyliklar, ajoyib an'analar meros bo'lib o'tadi. Shu bilan birga, sho'rolar davridan bizlarga o'z qadriga yeta bilmaslik, tarixiy gumrohlik, ruhiy tushkunlik, milliy parokandalik, ma'naviy qashshoqlik, ona tili bo'yicha chalasavodlik singari ijtimoiy illatlar ham asorat bo'lib qoldiki, bu illatlar o'z tabiatiga ko'ra uzoq yashovchan bo'ladi. "Xalqning ruhan tushkunligi, ongning zaharlanganligi eng oxir ma'naviy darddir. Bular millat uchun o'ta xavfli, ularning davosi esa shu xalq ruhiga ruhan, ongiga aqlan ta'sir ko'rsatish, ma'naviyat omillari ila malham qo'yishdir"².

Mustaqillik millatimizni qaddini rostlash imkoniyatini berdi. Mustaqillikka erishgandan so'ng milliy o'zligimizni anglash, milliy ma'naviyatimizni o'sishi va rivojlanishi uchun chinakam sharoit va qulay imkoniyatlar vujudga keldi. Milliy uyg'onish, keng qamrovli o'zgarishlar davri boshlandi.

Keyingi 20 yil ichida tarixiy roman janrida ijobiy siljishlar yuz berdi. O'tmish tarixiy voqealar asosida qator tarixiy romanlar yozildi. Bular sirasiga Muhammad Alining romanlari, Xurshid Davronning asarlarini ko'rsatish mumkin. Albatta bu asarlar, milliy tarixiy romanlar janrida munosib hissa bo'ldi. Lekin bizning boy tarixiy voqealar, tarixiy davrlarni, shonli lahzalarini yoritishda bu dengizdan bir tomchi xolos. Bu bizning tarixiy ong tarixiy xotiramizning, ular bilan bog'liq milliy o'zligimizni anglashni qay holatda ekanligidan guvohlik

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" T. 1997 y. 140-bet.

² Ibrohimov A. va boshqalar. "Vatan tuyg'usi" T. 1996 y. 7-12 bet.

beradi deb o'ylaymiz. Kichkina bir millat gruzinlarning tarixiy romanchiligidan bir misol. Gruzin tarixida malum bir rol o'ynagan Mouravi avlodlari to'g'risida o'n ikki tomli "Belikiye Mouravi" tarixiy romani rus tilida sovet davrida chop etildi. Bizning qobiliyatli yozuvchilarimiz uchun jahon adabiyotida mashhur bo'lgan tarixiy roman janri mumtoz yozuvchilarini boy ijodini o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Mashhur tarixiy romanlar mualliflari shotland Valter Skots, fransuzlar Moris Gryuon, Aleksandr Dyuma ota, Viktor Gyugolarning romanlaridan juda katta saboq olish mumkin. Misol uchun Viktor Gyugoning birgina "Sobor Parijskoy bogomateri" romanini ayrim jihatlarini olaylik. Kitobning uchinchi qismi Parijdagi mashhur ibodatxonani memorchiligiga, keyingi qismi Parij shahrining XIV asrdan XIX asrgacha memorchiligidagi o'zgarishlar to'g'risida batafsil o'quvchiga malumot beriladi. (86 betdan 115 betgacha) Bu betlarda Parij shahrining 400 yillik qurilishi, ko'chalari, saroylari, ibodatxonalari, ko'priklari, uylari, maydonlari, o'quv yurtlari, haykal, haykalchalari, bozor-birjalari, minoralarining memoriy tasviri badiiy mahorat bilan tafsiflanadi. Bu davrda Parij shahridagi ko'zga kcfiringan har bir taniqli inshootlar atroflicha tasvirlanib, ularda keyingi davrhrda qilingan memoriy o'zgartirishlar izchil tasvirlanadi. O'quvchi Parij shahrining tarixiy me'morchilik sarfati to'g'risida to'la tushunchaga ega bo'ladi. Bundan tashqari romanni o'qish jarayonida har bir bet tarixiy ruh bilan sug'orilgan. Syujet voqealar rivoji davomida tasvirlanayotgan XV asr fransiyaning ijtimoiy hayoti, o'sha davr odamlari, ijtimoiy tabaqali, turmush chigalliklari to'g'risida, malum darajada tasavvur hosil qilish mumkin. Kitob o'quvchini tarixiy bilim doirasini kengaytiradi, hamda tarixiy ongini shakllantiradi.

Milliy o'zligini anglashni zaifligi millat manfaatlariga yot g'oyalarni ularni o'rniga ustuvor bo'lib qolishi oqibati bo'ldi. Buning sababi shuki, faqat ma'lum bir tarixiy vaziyat va sharoitlardagina millat, xalq o'zining milliy g'ururi va sha'nini himoya qilish darajasigacha olib boradigan milliy tuyg'u uyg'onishi va harakatga kelishi mumkin.

“Xalqimizning ma'naviy poydevori bo'lajak davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat. Ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim”.

- Davlat mustaqilligi va milliy o'zligini anglash kabi bunday dialektikaning mohiyati shundan iboratki, bu huquqiy asosda milliy mustaqil davlatchilikning o'rnatilishi, xalqning milliy ongini ko'tarish jarayonini intensivlashtirish qiladi va xalqning o'zligini anglashining ko'rinishi va ko'tarilishi jarayonini tezlashtirib kishilarni yagona tarixiy taqdir va an'anaviy yaxlitlik negizida birlashtiradi.
- Xulosa qilib aytganda, milliy o'zligini anglash, qayta yuksalish, milliy mustaqillik davlatchilikning mustahkam poydevorini yaratishning qirralaridan biri -milliy tarixiy ongni tiklash orqali amalga oshirilishi mumkin.
- Tarixiy xotira va millatning tarixiy shonli o'tmishi har bir kishining ijtimoiy ongida milliy g'urur va milliy faxrni mustahkamlaydi, o'tmish ajdodlar qahramonona faoliyat oldida milliy tuyg'u kuchayadi.
- O'zbekistonning mustaqil suveren davlat mavqeini olishi uning haqiqiy o'z tarixiga qaytish imkonini yaratdi.
- Mustaqillikka erishganimizdan so'ng millatimizni tarixiy ongini, tarixiy xotirasini tiklash va uning asosida o'zligini anglagan haqiqiy millatni shakllantirish uchun misli ko'rilmagan ishlar Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirildi.
- birinchidan: millatimizning davlatchilik tarixi, yoki siyosiy tarixi, madaniyat tarixi, ma'naviyat tarixini tiklash uchun o'tmish tariximizni xolisona o'rganish boshlandi. Prezidentimizning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asari tarixchilarni bu yo'nalishda jadal tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun o'z vaqtida berilgan metodologik qo'llanma bo'ldi.
- O'tgan yigirma yil ichida tariximizni noyob yozma manbalari o'rganildi va ko'pchilik e'tiboriga havola qilindi. Xalqimizdan yashirilgan va unitib

yuborilgan noyob tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarix fanini o'qitishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, eski umrini o'tab bo'lgan marksistik metodologiyadan voz kechildi. Yangi darslik va o'quv qo'llanmalari chop etilib tarix ta'limi tizimiga joriy qilindi, chop etilgan ushbu o'quv qo'llanmalari xolisliqlik, tarixiylilik tamoyillari asosida yaratildi. Shuningdek tarix fani mazmun mohiyati umumjahon miqyosida e'tirof etilgan tarixiy konsepsiyalar, ya'limotlar bilan boyitildi. O'tmish tarixni o'rganishda tarixiy haqiqatni izlash va uni yuzaga chiqarish tarixiy tadqiqotlarning me'zoniga aylandi.

- Hozirgi kunda ham o'z umrini o'tab bo'lgan metod va metodologiyaga asoslangan adabiyotlardan foydalanish statistik ma'lumotlarni buzib ko'rsatish, ko'rinib turgan haqiqatdan ko'z yumish yuzaki asosiz xulosalar chiqarish va uni ilmiy haqiqat darajasiga ko'tarish hollari uchrab turadi.
- millatimizni tarixiy ongi va tarixiy xotirasini tiklaydigan va ular asosida milliy o'zligimizni anglashga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladigan, xalqimizni ma'naviy ruhiyatini yuksaltiradigan va barkamol insonni shakllantiradigan omillardan biri ma'naviy tarixiy obidalarining qayta tiklanishi bo'ldi. Prezidentimiz bu omillarga keng qamrovli mushohada bilan yondashgan holda ulkan ishlarni amalga oshirdi.
- Respublika olimlari o'zbek millatining kelib chiqishi o'zbek davlatchiligi tarixi bo'yicha ko'p tomli ilmiy asarlar yaratishga, sovet davrida ta'qiqlangan olim, yozuvchi, shoirlar va boshqa O'rta osiyo mutafakkirlarining ilmiy-tarixiy merosini qayta o'rganishga kirishib, ularning asarlari xalqqa tuhfa qilinmoqda.
- jahon sivilizatsiyasining noyob namunalari sirasiga kirgan xalqimizning boy ma'naviy me'rosi "Avesto" kitobining 2700 yilligi va "Alpomish" dostonining 1000 yilligi keng nishonlandi.
- Stalin davrida qatag'on qilingan siyosiy-jamoatchilik arboblari, milliy ozodlik g'oyalari uchun kurashgan tarixiy shaxslar, aybsiz stalin davri qatag'on qurboni bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasi tiklanib har bir viloyat, tuman markazida me'moriy yodg'orliklar o'rnatilib, xotira kitobi yaratildi.

- Demak, milliy o'zlikni anglash va tarixiy ong bir-birini taqozo qilib keladi. Tarixiy ong milliy o'zlikni unsuri sifatida inkor qilinganda u qashshoqlashib qolib, o'z jozibasini, ahamiyatini yo'qotadi. Inson o'z kelajak avlodini ta'lim-tarbiyasida milliy jihatlarga e'tibor bermasa bo'lg'usi avlodi vatansizlik dunyoqarashiga ega bo'ladi.

- Milliy o'zlikni anglashga qaratilgan siyosat Prezidentimiz tomonidan Respublikamiz mustaqilligini birinchi kunlaridanoq boshlab olib borilgan quyidagi xususiyatlarga ega edi:

Mamlakatimizni nihoyat qullik zulmidan qutulib, o'zini, buguni, ertasi, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lganini millat ongiga yetkazish;

Uzoq vaqt qullik nishonlarida bo'lgan xalqni ruhiyatini ko'tarish, uni uzoq davom etgan uyqudan uyg'otish, unga hayotbaxsh, bunyodkorlik kuch-qudratini uyg'otish. Millatning shonli tarixiy o'tmishi va uni kuch-qudratini ramzi bo'lgan yaqin o'tmishda g'arazli maqsadlar bilan yo'q qilingan ma'naviy-madaniy boyliklarni qayta tiklash va uni bugun va kelajak uchun xizmat qoildirish;

Millatni ma'naviy kuch-qudratini tiklash, uzoq davom etgan qaramlik holatidan chiqarish:

- Demak Inson ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyat to'g'risidagi o'z bilimlarida faqatgina ob'yektiv xossa, voqea, yakka faoliyat va ijtimoiy jarayonlarni belgilab qolmasdan, balki o'zining jamiyatda tutgan mavqeiga ko'ra bu hodisalarga o'z baxosini beradi. Ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ong insonning tarixiy o'rnini isbotlashga urinadi.

- Har bir xalq, millat o'zligini anglab yotgan taqdirdagina u haqiqiy millat bo'lishi mumkin. Kishilarning ijtimoiy ongida ularning milliy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlari o'z aksini topadi. Milliy borliq ularning hayotini ajralmas qismini tashkil etib, ijtimoiy ongning milliy o'zligini anglash deb ataladigan ijtimoiy ong sohasining paydo bo'lishi, rivojlanishini tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha milliy o'zlikni anglash jarayoni murakkab va uzoq davom etadi. Odamlar insoniyatni bolalik davridan unsurlari paydo bo'lgan.

Tarixchilarning fikricha tarixiy ongning shakllanishini quyidagi bosqichlarini ko'rish mumkin:

- Keyingi 20 yil ichida tarixiy roman janrida ijobiy siljishlar yuz berdi. O'tmish tarixiy voqealar asosida qator tarixiy romanlar yozildi. Lekin bizning boy tarixiy voqealar, tarixiy davrlarni, shonli lahzalarini yoritishda bu dengizdan bir tomchi xolos. Bu bizning tarixiy ong tarixiy xotiramizning, ular bilan bog'liq milliy o'zligimizni anglashni qay holatda ekanligidan guvohlik beradi deb o'ylaymiz.

XULOSA

- Demak, tarixiy ong va tarixiy xotira yaxlit birlikda bo'lsada, lekin tarixiy ong birlamchi bo'ladi. Tarixiy ong shakllangan, o'zini mukammal darajasiga yetgan bo'lsa, tarixiy xotira shaxs, xalq, millatda yuqori darajada ko'rinadi. Tarixiy ong, bu—har qanday bilimda bo'ladigan, hamma narsa, hatto ma'naviy borliq ham bo'lib o'tganligini anglashdir.
- Insoniyatning tarixiy ongi uzoq yo'lni bosib o'tgan o'z genezisiga ega. Uning shakllanishi insoniyat-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan birgalikda bordi. Ijtimoiy ong siyosiy, mafkura, huquqiy ong, axloq, din, fan, san'at falsafa shakllarida mavjud bo'ladi.
- Tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi.
- Demak, tarixiy ong o'z taraqqiyotida oltita bosqichni bosib o'tadi deb aytish mumkin, har bir bosqich o'ziga xos xususiyatlariga ega.
- Tarixiy ongning ko'rinishlari tarixiy bilimning mahsuli bo'lgan tarixiy asarlar, tarixiy qarashlar, tarixiy ta'limot, konsepsiyalardir. Bularning orasida tarixiy ongning oily darajada ko'rinishlari tarixiy ta'limot, turli tarixiy konsepsiyalardir.
- Tarixiy ongning rivojlanishini qadimgi, o'rta asrlar bosqichlarida uni nazariy tahlili uchun ilmiy asos unsurlari paydo bo'ldi, bu davrda ilmiy nazariy jihatdan tarixiy ongni tahlil qilish tarixni fan sifatida teologik mafkura ta'siridan xalos bo'lishi bilan dastlabki qadamlar qo'yildi.
- Vatandoshimiz Al-Beruniy tarixiy taraqqiyot konsepsiyasiga o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri bo'lib, alloma insoniyat taraqqiyotining siklik konsepsiyasini ilgari surdi. Ensiklopedist olim tarixiy taraqqiyotni turli xalqlar tarixi misolida tasvirladi. Hozirgacha Al-Beruniyning tarixchi olim sifatidagi faoliyati tadqiq etilgani yo'q. O'rta asrlarda vatanimiz tarixchilari yaratgan asarlarda tarixiy davrlashtirish mamlakatimizni turli davrlaridagi ijtimoiy,

iqtisodiy, siyosiy hayoti jarayonlari bayon qilingan. Lekin tarixning mohiyat mazmuni to'g'risidagi asarlar uchramaydi.

- XVIII asrdan boshlab tarixiy taraqqiyot, tarixiy ong mutafakkirlar uchun asosiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Ma'rifatparvarlik asrida ma'rifatparvarlar tarixiy ongni teologiya ta'ziyqidan xalos qilib haqiqiy tarixni yozishni boshladilar.
- Fanga tarix falsafasi atamasini mashhur ma'rifatparvar Volter kiritgan edi va Volter o'zining shu nomli asariga xudoning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning progressiv taraqqiyoti g'oyasini asos qilib oldi. U tarixning borishini g'oyalarning o'zgarishiga bog'liq deb bildi. Volter qadimgi dunyo tarixchilarining asarlariga, ularning tarixiy ongiga tanqidiy ko'z bilan qaradi. Bu davr tarixiy manbalaridagi juda nozik mifologiyani ajrata olmadi.
- G'arbda tarix falsafasi bo'yicha qator ilmiy qarashlar shakllandi. Bir qancha qimmatli tadqiqotlar yuzaga keldi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatidagi tarixiy ongning nazariy va metodologik qirralari g'arb tarix falsafasining taniqli namoyondalari Fevr, Gegel, Rikkert, Shopengauer, Nistshe, Klyuchevskiy, Kollingvud, Mark Blok, Toynbi, Popper, Yaspers va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi. Demak tarixiy bilim doimo jamiyatni o'zligini anglashini, faqat tarixiy istiqbolda tushunishi mumkin. Shaxs, induvid ongida fuqarolik his-tuyg'usi uyg'onishi uchun tabiiyki o'z ildizini uzluksiz izlash bilan doimo mashg'ul bo'ladi.
- Tarixiy taraqqiyot, tarixiy jarayon, tarixiy voqelik, hodisani bilish yoki ularni mohiyat-mazmunini chuqur anglash shaxs va jamiyat kamolotida tub siljishlarni yuz berishini zaruriy omili bo'lib xizmat qiladi.
- O'zlikni anglash insonning kamol topishidagi muhim jarayon bo'lib, shaxs o'z xalqini o'tmish tarixi, madaniyatini noyob namunalarini o'rganib ma'lum bir tushuncha hosil qiladi, o'z bilimini oshiradi, dunyoqarashini hosil qiladi. Bu o'z navbatida uni o'zligini anglashiga olib keladi. o'zligini anglagan inson har tomonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchi teran anglab yetgan bo'ladi.

- Tarixiy ong, tarixiy xotirani shakllanishi asosida o'quvchilarda milliy o'zlikni uchun tarix darslarini o'qitishning sifati muhim o'rin tutadi. Shu sababli mazmun-mohiyati chuqur bo'lgan tarix darsliklari, o'quv qo'llanmalarini yaratish va ulardan foydalanish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Xulosa qilib aytganda, o'zligini, tarixini bilmagan inson yoki o'sha yurt farzandi men shu yurt farzandi deya olmaydi. O'zlikni anglamagan bunday insonlar o'z manfaati yo'lida har qanday ishga tayyor inson bo'lib yetishishi yoki ma'naviy yuksalmagan, o'z fikriga ega bo'lmagan, o'zini hamda o'z yurtini qadr-qimmatini bilmaydigan kishi bo'lib chiqishi mumkin.
- Demak, tarixiy ong milliy o'zlikni anglashni tarkibiy unsuri bo'ladi. O'zligini anglagan inson eng avvalo o'z xalqi – millati tarixini bilgan holda tarixiy ong, tarixiy xotiraga ega bo'ladi, buyuk bobomiz Amir Temur aytganlaridek o'zining ongli faoliyati bilan millatning dardiga darmon bo'ladi.
- Demak, tarixiy ong, tarixiy xotira milliy o'zlikni anglash tushunchasini tarkibiy unsurlaridan biri bo'lib keladi. Qaysiki u milliy o'zlikni anglashdan oldin keladi va unga poydevor bo'lib xizmat qiladi.
- Milliy o'zlikni anglash tushunchasini tahlil qilganda shu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshiradigan tadqiqotchi tarixiy ong, tarixiy xotira tushunchasini tarixiy, falsafiy nuqtai nazardan ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
- Milliy o'zlikni anglash tushunchasini ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilganda albatta uni unsurlarini tarixiy madaniy yo'nalishda tushuntirish zaruriyati bor. Chunki milliy o'zlikni anglash jarayon sifatida ma'lum bir etnosni butun bir uzliksiz tarixi davomida qandaydir darajada sekin yoki jadal amalga oshadi. Bu holni tadqiqotchi hisobga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Demak, o'zlikni anglashning mukammalligi yoki zaifligi u yoki bu millatning, u yoki bu ijtimoiy etnik birlikning tarixiy ongi, xotirasini qay darajada rivojlanganiga bog'liq bo'ladi. Tarixiy xotira va tarixiy ong ijtimoiy etnik birlikning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni bilan hamohang rivojlanib boradi.

- Xulosa qilish mumkinki, o'z manfaat ehtiyojlarini moddiy jihatdan qondirgan etnos ma'naviy hayotini ham shu asosda quradi. O'z o'tmishini sarhisob qilgan holda kelajagini belgilaydi. Boshqalar oldida o'z mavqeini asoslash va uni mustahkamlash uchun o'z qadriyatlarini himoya qiladi. Anashu himoya qilish vositasi uning o'tmish tarixini muhim jihatlarini belgilaydigan tushuncha uni tarixiy ongi va xotirasi bo'ladi.
- Tarixiy ong, tarixiy xotirani tarkibida singdirgan milliy o'zlikni anglash darajasiga ega bo'lgan etnosning boshqalar qatorida teng huquqli bo'lish mavqeini tarixan asoslash demakdir.
- Tarixiy ong, tarixiy xotira shu tarzda shakllanib millatni o'zligini bilish tuyg'usini keltirib chiqaradi. Bu holni biz shunday tasvirlaymiz: **tarixiy ong, tarixiy xotira —————→ etnos —————→ va milliy o'zlik —————→ jamiyat.**
- Demak u yoki bu xalq o'z tarixiy ongi, tarixiy xotirasini uzluksiz rivojlantirib borishi va uni etnos vakillari individlar ongiga singdirishi natijasida ushbu etnos o'z ongida milliy o'zligituyg'usini hosil qiladi. Bu uzliksiz jarayon etnos vakili bo'lgan individ dunyoqarashida alohida his tuyg'u-or-nomus, o'z xalqiga nisbatan hurmat, iftixor va oxir oqibatda millat miqyosida milliy iftixorni shakllantiradi.
- Davlat mustaqilligi va milliy o'zligini anglash kabi dialektikaning mohiyati shundan iboratki, bu huquqiy asosda milliy mustaqil davlatchilikning o'rnatilishi, xalqning milliy ongini ko'tarish jarayonini intensifikatsiya qiladi va xalqning o'zligini anglashining ko'rinishi va ko'tarilishi jarayonini tezlashtirib kishilarni yagona tarixiy taqdir va an'anaviy yaxlitlik negizida birlashtiradi.
- Xulosa qilib aytganda, milliy o'zligini anglash, qayta yuksalish, milliy mustaqillik davlatchilikning mustahkam poydevorini yaratishning qirralaridan biri -milliy tarixiy ongni tiklash orqali amalga oshirilishi mumkin.
- Tarixiy xotira va millatning tarixiy shonli o'tmishi har bir kishinmg ijtimoiy ongida milliy g'urur va milliy faxrni mustahkamlaydi, o'tmish ajdodlar qahramonona faoliyat oldida milliy tuyg'u kuchayadi.

- O'zbekistonning mustaqil suveren davlat mavqeini olishi uning haqiqiy o'z tarixiga qaytish imkonini yaratdi.
- Mustaqillikka erishganimizdan so'ng millatimizni tarixiy ongini, tarixiy xotirasini tiklash va uning asosida o'zligini anglagan haqiqiy millatni shakllantirish uchun misli ko'rilmagan ishlar Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirildi.
- millatimizning davlatchilik tarixi, yoki siyosiy tarixi, madaniyat tarixi, ma'naviyat tarixini tiklash uchun o'tmish tariximizni xolisona o'rganish boshlandi. Prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari tarixchilarni bu yo'nalishda jadal tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun o'z vaqtida berilgan metodologik qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.
- O'tgan yigirma yil ichida tariximizni noyob yozma manbalari o'rganildi va ko'pchilik e'tiboriga havola qilindi. Xalqimizdan yashirilgan va unitib yuborilgan noyob tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi.
- Tarix fanini o'qitishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, eski umrini o'tab bo'lgan marksistik metodologiyadan voz kechildi. Yangi darslik va o'quv qo'llanmalari chop etilib tarix ta'limi tizimiga joriy qilindi, chop etilgan ushbu o'quv qo'llanmalari xolisliqlik, tarixiylilik tamoyillari asosida yaratildi. Shuningdek tarix fani mazmun mohiyati umumjahon miqyosida e'tirof etilgan tarixiy konsepsiyalar, ya'limotlar bilan boyitildi. O'tmish tarixni o'rganishda tarixiy haqiqatni izlash va uni yuzaga chiqarish tarixiy tadqiqotlarning me'zoniga aylandi.
- Hozirgi kunda ham o'z umrini o'tab bo'lgan metod va metodologiyaga asoslangan adabiyotlardan foydalanish statistic ma'lumotlarni buzib ko'rsatish, ko'rinib turgan haqiqatdan ko'z yumish yuzaki asosiz xulosalar chiqarish va uni ilmiy haqiqat darajasiga ko'tarish hollari uchrab turadi.
- millatimizni tarixiy ongi va tarixiy xotirasini tiklaydigan va ular asosida milliy o'zligimizni anglashga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladigan, xalqimizni ma'naviy ruhiyatini yuksaltiradigan va barkamol insonni shakllantiradigan omillardan biri ma'naviy tarixiy obidalarining qayta

tiklanishi bo'ldi. Prezidentimiz bu omillarga keng qamrovli mushohada bilan yondashgan holda ulkan ishlarni amalga oshirdi.

- Respublika olimlari o'zbek millatining kelib chiqishi o'zbek davlatchiligi tarixi bo'yicha ko'p tomli ilmiy asarlar yaratishga, sovet davrida ta'qiqlangan olim, yozuvchi, shoirlar va boshqa O'rta osiyo mutafakkirlarining ilmiy-tarixiy merosini qayta o'rganishga kirishib, ularning asarlari chop etilmoqda.

- Stalin davrida qatag'on qilingan siyosiy-jamoatchilik arboblari, milliy ozodlik g'oyalari uchun kurashgan tarixiy shaxslar, aybsiz stalin davri qatag'on qurboni bo'lgan vatandoshlarimiz xotirasi tiklanib har bir viloyat, tuman markazida me'moriy yodg'orliklar o'rnatilib, xotira kitobi yaratildi.

- Demak, milliy o'zlikni anglash va tarixiy ong bir-birini taqozo qilib keladi. Tarixiy ong milliy o'zlikni unsuri sifatida inkor qilinganda u qashshoqlashib qolib, o'z jozibasini, ahamiyatini yo'qotadi. Inson o'z kelajak avlodini ta'lim-tarbiyasida milliy jihatlarga e'tibor bermasa bo'lg'usi avlodi vatansizlik dunyoqarashiga ega bo'ladi.

- Milliy o'zlikni anglashga qaratilgan siyosat Prezidentimiz tomonidan Respublikamiz mustaqilligini birinchi kunlaridanoq boshlab olib borilgan quyidagi xususiyatlarga ega edi:

- Mamlakatimizni nihoyat qullik zulmidan qutulib, o'zini, buguni, ertasi, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lganini millat ongiga yetkazish;

- Uzoq vaqt qullik nishonlarida bo'lgan xalqni ruhiyatini ko'tarish, uni uzoq davom etgan uyqudan uyg'otish, unga hayotbaxsh, bunyodkorlik kuch-qudratini uyg'otish. Millatning shonli tarixiy o'tmishi va uni kuch-qudratini ramzi bo'lgan yaqin o'tmishda g'arazli maqsadlar bilan yo'q qilingan ma'naviy-madaniy boyliklarni qayta tiklash va uni bugun va kelajak uchun xizmat qoildirish;

- Millatni ma'naviy kuch-qudratini tiklash, uzoq davom etgan qaramlik holatidan chiqarish:

- Demak, inson ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyat to'g'risidagi o'z bilimlarida faqatgina ob'yektiv xossa, voqea, yakka faoliyat va ijtimoiy jarayonlarni belgilab qolmasdan, balki o'zining jamiyatda tutgan mavqeiga ko'ra bu hodisalarga o'z

baxosini beradi. Ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ong insonning tarixiy o'rnini isbotlashga urinadi.

- Har bir xalq, millat o'zligini anglab yotgan taqdirdagina u haqiqiy millat bo'lishi mumkin. Kishilarning ijtimoiy ongida ularning milliy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlari o'z aksini topadi. Milliy borliq ularning hayotini ajralmas qismini tashkil etib, ijtimoiy ongning milliy o'z-o'zini anglash deb ataladigan ijtimoiy ong sohasining paydo bo'lishi, rivojlanishini tashkil etadi.
- Bizning fikrimizcha milliy o'zlikni anglash jarayoni murakkab va uzoq davom etadi. Keyingi 20 yil ichida tarixiy roman janrida ijobiy siljishlar yuz berdi. O'tmish tarixiy voqealar asosida qator tarixiy romanlar yozildi. Lekin bizning boy tarixiy voqealar, tarixiy davrlarni, shonli lahzalarini yoritishda bu dengizdan bir tomchi xolos. Bu bizning tarixiy ong tarixiy xotiramizning, ular bilan bog'liq milliy o'zligimizni anglashni qay holatda ekanligidan guvohlik beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.. I.A.Karimov “O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura”.
1-jild, T.: “O’zbekiston”, 1996. 263 bet
2. I.A.Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, T.: “O’zbekiston”,
1996. 300 bet
3. I.A. Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, T.: “O’zbekiston”,
1996. 270 bet
4. I.A. Karimov Bunyodkorlik yo’lidan. 4-jild, T.: “O’zbekiston”, 1996. 268 bet
5. I.A. Karimov Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-jild, T.:
“O’zbekiston”, 1997. 560 bet
- 6.I.A. Karimov Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. 6-jild, T.: O’zbekiston”,
1998. 414 -bet
7. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.: “O’zbekiston”
1999. 7-jild. 412-bet.
8. I.A.Karimov “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard
maqsadimiz” 8-jild, T.: "O’zbekiston" 2000. 524 bet
“O’zbekiston”, 1996.
9. I.A.Karimov Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz 9-jild, T.:
“O’zbekiston”, 2001.438 bet
10. I.A.Karimov “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak” 10-jild, T.:
“O’zbekiston”, 2002. 428 bet
11. I.A.Karimov “Biz tanlagan yo’l demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo
bilanhamkorlik yo’li” 11-jild, T.: “O’zbekiston”, 2003. 365 bet
12. I.A.Karimov “Tinchlik va xavfsizligimiz o’z kuch qudratimizga,
hamjihatligimiz” 12-jild, T.: “O’zbekiston”, 2001. 438 bet
13. I.A.Karimov . "O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid,
barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent. "O’zbekiston"1997-yil.
324-bet
14. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". "Ma'naviyat".2008.174
bet
15. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". "Sharq" T.:1998-yil. 16 bet

16. I.A.Karimov "Xalqmizning otashqalb farzandi" T. 1992-y. 346-bet
17. I.A.Karimov. "Milliy istiqloq mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". Toshkent. "O'zbekiston". 2000. 11 bet
18. I.A.Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. 1998-y. 268-bet.T.:2008-yil.
- 19.I.A.Karimov Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni moderinizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005, 296-b
20. I.A.Karimov. Ma'naviyat,falsafa va hayot.. "Fan" 2001-yil 386-bet
21. I.A. Karimov . "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda " Toshkent. "O'zbekiston" 2000-yil. 350-bet
22. I.A. Karimov Xotira boqiydir, qadr — muqaddas. «O'zbekiston ovozi». — 2007. —№ 56.
23. R. Raxmonov, F. Fayziyev. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T.: "O'zbekiston" 2008. 69-bet
24. Xrestomatiya po istorii drevnego Vostoka. M. Vostochnaya lit. 1963. str 435.
25. Istoriya Uzbekistana. Pod.red. V.L.Gentshke i dr. —T.: Universitet, 2002, str 422.
26. Tulenov J.T., Gafurov E. "Falsafa. T. "o'qituvchi " 1991-y. 328-bet.
27. O'zbekiston tarixi 1-son 2002y.
28. Matboboyev O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
29. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.
30. Ibrohimov. A. Va boshqalar. "Vatan tuyg'usi" T. 1996 y. 294-bet.
- 31.Jabborov I. "O'zbek xalq etnografiyasi" T. 1994 y. 275-betlar
32. Q. Rajabov. Nasrullohxon. T.: "Abu matbuot-konsalt" 2011. 380-bet
- 33.R.T. Shamsiddinov. Istiqloq ushun kurash fidoiylari. Andijon.1993. 387-bet
34. R.T. Shamsiddinov. Jertvi repreccii. Andijon. 1994. 380-bet
35. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T. "Sharq". 2000 y. 406-bet
36. Shermuhamedov S. "Davrimiz allomasi" T. 1998 y. 227-bet.

37. Ziyo Ko'kalp "Haqiqiy jamiyatgina millatdir". Dunyo ommabop majmuasi 1993 y. Nishona soni 216-bet.
38. Abdullajonova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. Falsafa va xukuk.. - Toshkent, 2004. - № 2, 383-bet.
39. Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish -davr talabi. - T.: Mexnat, 2000. 267-bet.
40. Abdullayev R. Tarixiy ong va Uzbekistonning zamonaviy tarix fani. Tarix va uzlikni anglash II: Uzbekiston va Germaniya XX asrda. - Toshkent, 2007. 212-betlar.
41. Abdullajanova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. // Falsafa va xukuk.. - Toshkent, 2004. - № 2, 282-bet.
42. Kurbonov T.X., YOshlarda milliy gurning shakllanishida madaniy merosning roli: fals.fan.nomz. dis. avtoref -T.:UzMU, 2005, 230-bet.
43. Kamenskaya R.A. Istoricheskoye soznaniye: Avtoref. dis. kand. filos. nauk. - Volgograd: VGPU, 1999. - S. 287.
44. Samiboyev X., SHirinboyev SH. Maxalla —tarixiy xotirani tarbiyalash maskani. 311 bet
45. Kelle V.J. Intellektualnaya i duxovnaya sostavlyayushiy kulture. Voprosy filosofii. — Moskva, 2005. - № 10. - S. 256.
46. Falsafa. Matbua Ahmedova. 2006-yil. 389 bet
47. Falsafa asoslari.Q. Bo'ronov.. "O'zbekiston" 2005-yil 345 bet

Gazeta va jurnallar

1. Mulokot.- Toshkent, 2003. — № 3, 10-bet.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun "Ma'rifat" gazetasi, 1-oktabr. 1997-yil..
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Xalq ta'limi jurnali" 1998-yil.
4. O'zbekiston tarixi ilmiy jurnal. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan nashriyoti".
5. Davlat ta'lim standartlari "Ma'rifat" gazitasi, 18 avgust №-67 1999-yil.
6. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. "Toshkent" 2007-yil.
7. Falsafadan va'z matnlari. "Toshkent" 1995-yil.
8. Enseklopediya. 5-son.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti “Tarix” mutaxassisligi II kurs magistranti Navro’zov Ikrom Nurillayevichning “*Tarixiy ong va milliy o’z-o’zini anglash dialektikasi*” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar xulosasi

“Tarix” mutaxassisligi II kurs magistranti Navro’zov Ikrom Nurillayevichning “Tarixiy ong va milliy o’z-o’zini anglash dialektikasi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi rejasi kirish, ikkita bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyada hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan bo’lgan tarixiy ong va milliy o’zlikni anglashni mushtarakligi muammosi ilgari surilgan.

Tarixiy ong uning genezisi, milliy o’zlikni anglash va uni shakllantirishda tarixiy ongni o’rni atroflicha tahlil qilingan. Har bir savollar mantiqan izchillikda hozirda mavjud bo’lgan manba va adabiyotlardan foydalangan holda ochib berilgan hamda disertant har bir savolni ochib berish bilan birga o’z fikrini ilmiy asoslagan holda bayon qilishga harakat qilgan. Tarixiy ong, milliy o’zlikni anglash kabi tushunchalar umum e’tirof etgan olimlarning qarashlari asosida ochib berilgan.

Dissertatsiyani bayon qilishda magistrantning ilmiy dunyoqarashi ma’lum darajada shakllangani, mustaqil ilmiy fikr yuritish qobiliyati ko’rinadi. Ilmiy ishda ayniqsa Prezidentimizning mustaqillik davrida amalga oshirgan milliy qadriyatlarni tiklash sohasidagi bunyodkorlik ishlarini milliy o’zligimizni anglashdagi o’rni ilmiy asoslab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, dissertatsiya mavjud talablarga mos holda to’liq tugallangan ish deb aytish mumkin va uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar NDPI Tarix fakulteti

“Umumiy tarix” kafedrasi dotsenti

27.06.2011

f.f.n R.R.Rajabov.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti “Tarix” mutaxassisligi II kurs magistranti Navro’zov Ikrom Nurillayevichning “*Tarixiy ong va milliy o’zligini anglash dialektikasi*” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

Mustaqillik yillarida haqqoniy, milliy o’zligimiz va ma’naviyatimizni tiklash, uni rivojlantirish uchun tarix ta’limini mazmun-mohiyatini tubdan o’zgartirish asosiy muammoli vazifalardan biri bo’lib qolmoqda.

Navro’zov Ikrom Nurillayevichning “Tarixiy ong va milliy o’zligini anglash dialektikasi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi II bob, 5 ta savol, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasi hozirgi kunda tarix fanining dolzarb muammolaridan biri bo’lgan ish asosan tarixiy ong, tarixiy xotira va ularni milliy o’zlikni anglashdagi o’rniga bag’ishlangan.

Tarixiy ong tarixiy xotirani jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonida shakllanish bosqichlariga, uning o’zlikni anglashdagi o’rniga qaratilgan. Ular milliy o’zlikni anglashdagi o’rni nazariy va amaliy jihatdan ko’rsatishga harakat qilingan. Dissertant mavzuni yoritishda mavjud adabiyotlardan unumli foydalanishga harakat qilgan. Har bir savol atroflicha ochib berilgan. Hamda tarixiy –falsafiy nuqtai-nazaridan qo’yilgan muammo tahlil qilinib, mustaqil xulosalar chiqarishga harakat qilingan.

Hozirgi kunda tarix fanini o’qitish orqali o’quvchilarga tarixiy bilim berish bilan birga ularni ongida o’zligini, milliy o’zligini anglashni singdirish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda. Ushbu dissertatsiya maktabda tarix darslarini o’qitishda zaruriy adabiyot sifatida foydalanish mumkin. Qaysiki, tarix o’qituvchisi ushbu dissertatsiyani o’qigan holda ma’lum darajada o’z nazariy dunyoqarashini boyitadi. Va tarix darslarida o’quvchilarda o’zlikni anglashda metodik adabiyot sifatida foydalanadi. Bizning fikrimizcha, dissertatsiyasi qo’yilgan maqsad amalga oshgan hamda ilmiy asoslangan ilmiy-tadqiqot ishi deb baholash mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasida ayrim imlo xatolar mavjud. Tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Taqrizchi Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi
№ 37-sonli maktab-internati**

tarix fani metodist o’qituvchisi

H. Hatamov

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti “Tarix” mutaxassisligi II kurs
magistranti Navro’zov Ikrom Nurillayevichning “*Tarixiy ong va milliy o’zligini
anglash dialektikasi*” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Milliy o’zligini anglash, qayta yuksalish, milliy mustaqillik davlatchilikning mustahkam poydevorini yaratishning qirralaridan biri -milliy tarixiy ongni tiklash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tarixiy xotira va millatning tarixiy shonli o’tmishi har bir kishinmg ijtimoiy ongida milliy g’urur va milliy faxrni mustahkamlaydi, o’tmish ajdodlar qahramonona faoliyat oldida milliy tuyg’u kuchayadi.

Magistrant Navro’zov Ikrom Nurillayevichning “*Tarixiy ong va milliy o’zligini anglash dialektikasi*” mavzusidagi magisrtlik dissertasiyasi II bob, 5 ta savol, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib magistrlik dissertasiyasi hozirgi kunda tarix fanining dolzarb muammolaridan biri bo’lgan ish asosan tarixiy ong, tarixiy xotira va ularni milliy o’zlikni anglashdagi o’rniga bag’ishlangan.

Tarixiy ong tarxiy xotirani jahon svilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonida shakllanish bosqichlariga, uning o’zlikni anglashdagi o’rniga qaratilgan. Ularni milliy o’zlikni anglashdagi o’rni nazariy va amaliy jihatdan ko’rsatishga harakat qilingan. Dissertant mavzuni yoritishda mavjud adabiyotlardan unumli foydalanishga harakat qilgan. Har bir savol atroflicha ochib berilgan. Hamda tarixiy –falsafiy nuqtai-nazaridan qo’yilgan muammo tahlil qilinib, mustaqil xulosalar chiqarishga harakat qilingan.

Hozirgi kunda tarix fanini o’qitish orqali o’quvchilarga tarixiy bilim berish bilan birga ularni ongida o’zligini, milliy o’zligini anglashni singdirish dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda. Ushbu dissertasiya maktabda tarix darszlarini o’tishda zaruriy adabiyot sifatida foydalanish mumkin. Qaysiki, tarix o’qituvchisi ushbu dissertasiyani o’qigan holda ma’lum darajada o’z nazariy dunyoqarashini boyitadi. Va tarix darslarida o’quvchilarda o’zlikni anglikni anglashda metodik adabiyot sifatida foydalanadi. Bizning fikrimizcha, dissertasiyasi qo’yilgan maqsad amalgam oshgan hamda ilmiy asoslangan ilmiy-tadqiqot ishi deb baholash mumkin.

Magistrlik dissertasiyasida ayrim imlo xatolar mavjud. Tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi
Navoiy viloyati konchilik instituti

dots. X. Raupov.

- 1. Tarixiy ong nima-**
- 2. Tarixiy xotira nima-**
- 3. O'zlikni anglash nima-**
- 4. Milliy o'zlikni anglash nima-**
- 5. Tarixiy ongni milliy o'zlikni anglashdning mushtarakligi deganda nimani tushunasiz-**

Qaysi adabiyotlardan foydalandingiz

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q asari